

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

KUNDUZGI BO'LIM

**MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI VA PEDAGOGIKA
KAFEDRASI**

RAIMOVA DILNOZA

“OILADA AXLOQIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRSH”

5140800 – Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: o'qituvchi G.Eshnazarova.

Bitiruv malakaviy ishi Maktabgacha ta'lim metodikasi va pedagogika kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2016-yil 15-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma № 7).

Kafedra mudiri :

dots.A.Abdumannotov

Bitiruv malakaviy ishi YaDAKning 2016-yil ____ iyundagi majlisida himoya qilindi va ____ foizga baholandi (bayonnoma № ____).

YaDAK raisi:

A'zolari:

SAMARQAND – 2015

MUNDARIJA

KIRISH

I. BOB. OILADA AXLOQIY MUNOSABATLARNI

SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....

1.1 Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirishning ilmiy pedagogic asoslari.....

1.2 Buyuk allomalarimiz oilada axloqiy tarbiyaning ahamiyati haqida qarashlari.....

1.3. Oilada ma'naviy - axloqiy munosabatlarni negizi va mazmuni.....

II BOB OILADA AXLOQIY MUNOSABATLARNI

SHAKLLANTIRISHNING AMALIY YO'LLARI, VOSITALARI VA SHAKLLARI

2.1 Oilada axloqiy munosabatlarni yo'lga qo'yishda oilaviy an'analar, urf-odat va milliy qadriyatlardan foydalanishning shakllari.....

2-2. Oilalar bilan olib borilgan tadqiqot ishlari, testlar va ularning natijalari..

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 14 bobining 63-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega", 64-moddasida esa "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar", 66-moddasida "Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar" kabi huquqiy-pedagogik asoslar o'z ifodasini topgan. Mazkur moddalar mazmuni oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi, ota-onalarning farzandlar oldidagi ijtimoiy burchi, vazifalari va nihoyat, voyaga yetgan farzandlarning ota-onalar oldidagi burchi, ma'suliyati hamda vazifalari aniq belgilab ko'rsatilgan. Bunday ijtimoiy ma'suliyat oilada ota-onalar zimmasiga yuklatilganligi, ota-onaning oilada bolalar tarbiyasini tashkil etishi oila tarbiyasining samaradorligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov oilaning jamiyat hayotidagi roli haqida to'xtalib: "Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor", -deb ta'kidlagan edi.

Yurtimizda mustaqillikga erishganimizdan so'ng oila va oilada farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tibor yanada ko'chaydi. Jumladan: "Oila yili" (1998), "Ayollar yili" (1999), "Sog'lom avlod yili" (2000), "Ota-onalar va bolalar yili" (2001), "Qariyalarni qadrlash yili" (2002), "Obod mahalla yili" (2003), "Mehr va muruvvat yili" (2004), va hk dasturlarida ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy masalalar qamrab olindi. Oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini va manfaatlarini takomillashtirish ham nazarda tutildi.

Respublikamizda "Oila" kodeksining e'lon qilinishi, O'zbekiston qonunchiligi uchun yangilik bo'lgan nikoh shartnomasi, qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabni belgilash, alimentlar to'lash to'g'risida kelishish, bolalarning oiladagi huquqlari va ota-onalarini moddiy ta'minlash to'g'risidagi

majburiyatlar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish kabi muhim qoidalar oila tarbiyasida axloqiy madaniyatni qonunlashtirish, huquqiy asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1998-yil 2-fevralda Respublika xotin-qizlar qo'mitasi huzurida "Oila" ilmiy amaliy markazining tashkil etilishi oilaga taaluqli axloqiy munosabatlarni yo'lga qo'yish ya'ni milliy an'analarni, umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, oila a'zolarining huquqiy savodxonligini oshirish yo'lida katta qadam qo'yildi.

Prezidentimizning 2012 yil 27 fevraldagi "Mustahkam oila yili Davlat dasturi to'g'risida"gi qarori bu boradagi an'analarni mazmunan to'ldirish hamda davom ettirishga qaratilgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Zero, oilalarda axloqiy munosabatlarning shakllanishi, oilalar totuvligi va farovonligi yurtimiz taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari yurtboshimiz tomonidan 2013 yilning "Obod turmush yili", 2014 yilni "Sog'lom bola yili" hamda 2015 yilni "Keksalarni e'zozlash" yili deb e'lon qilinishining o'zi ham oila tarbiyasi, oilada ota-onaning farzand oldidagi burchi va voyaga yetgan farzandlarning ota-ona oldidagi burchlarini yanada chuqurroq his qilishlarini umumiy qilib aytganda oilada axloqiy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishni toqozo etadi.

Kishilarning ongidagi, ularning ma'naviyatidagi o'zgarishlar, jamiyatning oilaga ko'rsatayotgan ijtimoiy ta'siri oila tarbiyasi amaliyotida o'z ifodasini topadi. Oila – o'zbek xalqi uchun eng muqaddas maskan hisoblanadi. Oilaning jamiyatdagi o'rne va o'ziga xos milliy xususiyatlari haqida Islom Karimov "Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas ... O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishini birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa, eng oliy

darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir",¹ va yana "Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi, jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lida muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljishida hal qiluvchi ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir"². Bu fikr xususan oila tarbiyasida ham o'ziga xos milliy xususiyatlarda o'z ifodasini topadi. Haqiqatan ham o'zbeklar o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi tabiiy-milliy xususiyatdir. Buni oila tarbiyasida hisobga olmaslik mumkin emas. Milliy xususiyatlarning oilada yosh avlod tarbiyasidagi o'rni beqiyosdir. Buni Ispaniyalik bir faylasuf butun umrini jahon xalqlarining urf-odatlarini, ahloq-odobini tadqiq qilishga bag'ishlab Toshkent, Samarqand, Buxoroda bo'lgan. Yurtiga qaytib borgach, "Hozirgacha o'rgangan, tadqiq qilgan barcha ishlarimni o'n besh yoshli o'zbek qizalog'ining o'rnidan turib, qo'lini ko'ksiga qo'yganicha choy o'zatishtagi odobiga, nazokatiga almashtirishga rozi edim," - deb bildirgan fikri orqada oilaviy milliy tarbiyaning o'ziga xos mohiyati, mazmuni o'z ifodasini topgan. Shuning uchun biz oila tarbiyasida axloqiy munosabatlarni shakllantirishning yo'llari va milliy xususiyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini o'rganishga harakat qilamiz.

Yuqorida ta'kidlagan fikr mulohazalardan kelib chiqib mazkur bitiruv ishning mavzusini **"Oilada axloqiy munosabatlarni shakllantirishning pedagogic asoslari"** deb nomladik.

Tadqiqot ob'yekti: Oilada axloqiy munosabatlarni shakllantirishda oilalardagi muhitni o'rganish, barkamol shaxs shakllanishida ota-onaning vazifalari va burchlarini o'rganib chiqish va tahlil qilish.

¹ I.A.Karimov. "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "O'zbekiston", T. 1992 yil. 21-bet

² I.A.Karimov "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lidanm". -Toshkent "O'qituvchi" 1995 yil. 139-140 betlar.

Tadqiqot predmeti: Oilaviy tarbiya va oiladagi shart –sharoitlarni o'rganish, oila muhitida ta'lim – tarbiya jarayoni, axloqiy munosabatlarning o'ziga xosligini o'rganish, tahlil qilish va uslubiy tavsiyalar berish.

Tadqiqot maqsadi: Oilada axloqiy munosabatlarni shakllantirishni to'g'ri yo'lga qo'yish tadqiqot natijalariga ko'ra yo'l-yo'riqlar ko'rsatib tavsiyalar berish.

Bitiruv ishining mavzusi, muammo va maqsadiga mos ravishda qo'yidagi **vazifalarni** ochish masalalari qo'yiladi:

1. O'zbek millatiga xos bo'lgan milliylik, o'zbek oilalarida axloqiy munosabatlarni shakllanganlik darajasini o'rganish, tahlil qilish.
2. Sharq mutafakkirlarining oilada farzand tarbiyasi haqidagi qarashlarini tahlil qilish.
3. Oilada farzand tarbiyasida ota-onaning roli va shaxsiy namunasining ahamiyatini ochib berish.
4. Farzand tarbiyasida milliy qadriyat, an'ana va urf-odatlarni mohiyatini ochib berish.
5. Farzand tarbiyasi borasida ota-onalar bilan olib borilgan amaliy ishlarni tahlil qilish.

Umumiy nazariya va metodologiyaga tayangan holda bitiruv ishining mavzusini ochib berish uchun qo'yidagi bir-biriga yaqin va bir-birini to'ldirib boradigan **tadqiqot usullaridan** foydalanildi:

1. Oilalarda axloqiy munosabatlarni shakllantirishga doir ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilib chiqish.
2. Mahallalardagi oilalar bilan olib borilgan ishlarni ko'zatish.
3. Oilalar bilan tanishib, ota-onalar bilan o'z farzandini qanchalik darajada bilishi haqida suhbatlashish.
4. Ota-onalar bilan ijtimoiy psixologik treninglar hamda testlar va farzand tarbiyasiga doir turli xil savol-javoblar olib borish.
5. Tadqiqot natijalarini statistik va psixologik tahlil qilish.

Tadqiqotimizning ilmiy farazi.

1. Agarda ota-onalarga farzand tarbiyasi, ota-onaning farzandi oldidagi burchi hamda farzandning ota-ona oldidagi ma'suliyati va eng asosiysi komil inson tushunchalarini tarkib toptirish borasidagi ishlab chiqilgan usullarimizdan unumli foydalanib axloqiy munosabatlarning yo'lga qo'yilganligini o'rganilib, to'g'ri tashxis qo'yilsa;

2. Tashxisga muvofiq ishlab chiqilgan tafsiyalarimiz asosida har bir oilalarda farzand tarbiyasi va oilalarda axloqiy munosabatlarni yo'lga qo'yish borasidagi pedagogik tushunchalarga hamda tarbiyaning muhim qirralariga e'tibor qaratilsa;

3. Mahallalardagi oilalar bilan ijtimoiy, pedagogik, psixologik treninglar hamda davra suhbatlari o'tkazilsa;

4. O'zbek oilalarida shakllanayotgan, tarbiyalanayotgan o'g'il-qizlarning komil inson, yetuk, yosh va malakali kadr, ma'suliyatli oila boshlig'i va mehribon, rahmdil onalarni shakllantirishning yuqori ko'rsatgichlariga erishishimiz mumkin.

Tadqiqotning metodologik asoslari:

a) “ Ta'lim, to'g'risidagi qonun ”, “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, oila kodeksi va boshqa davlat hujjatlari;

b) I.A.Karimovning “ Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” asari, “ Barkamol avlod orzusi ”, “ XXI asr bo'sag'asida” va boshqa asarlar;

c) Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlari milliy qadriyatlar sifatida va milliy tarbiya mezonlari;

Darsliklar, o'quv qo'llanmalar, jurnallar va gazetalar;

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati:

Oilalarda tarbiyaviy jarayonni o'rganib, tahlil qilib, natija va xulosalar asosida milliy tarbiya me'zonlariga asoslanib tarbiya muammolarini ochib, kamchiliklarni inobatga olib, uslubiy tavsiyalar va maslahatlar beriladi.

Bitiruv ishimizning tajriba maydoni Samarqand viloyati Payariq tumani, Tomoyrot mahallasi, Tomoyrot qishlog'idagi oilalar olindi.

Bitiruv ishimizning mazmuni uning rejasida ko'rsatilgan tadbirlarni o'z ichiga qamragan. U kirish, ikki bob, besh band, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda mundarija qismidan iborat.

Ishning kirish qismida tadqiqotning umumiy tavsifi berilgan. Ya'ni mavzuning dolzarbligi asoslangan, maqsad, vazifalar belgilab chiqilgan, ilmiy farazi, nazariy asosi, tadqiqotning o'tkazilish bosqichlari, nazariy va amaliy ahamiyati bayon qilinadi.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Oilada axloqiy munosabatlarni shakllantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan. Ushbu bobda oilada axloqiy munosabatlarni shakllantirishning nazariy asosi ochib berildi. Mutafakkirlarimizning qarashlariga asoslanib, oilaviy tarbiyaning mazmuni, oilada axloqiy munosabatlarni shakllanshi, farzand tarbiyasida ota-onaning vazifalari va shaxsiy namunasi tugan o'rni va ahamiyati ochib berilgan.

Bitiruv ishining ikkinchi bobi **“Axloqiy sifatlarni tarbiyalashning vositalari va uslublari”** deb nomlandi. Uning dastlabki bandida oilada axloqiy munosabatlarni shakllantirishda milliy qadriyat, urf-odat va an'analarning foydalanish va ularning ahamiyati o'z ifodasini topgan. Ikkinchi bandida oilalarda olib borilgan suhbatlar, testlar, savol-javoblar va ayrim oilalarda uchraydigan holatlar bo'yicha olib borilgan suhbatlar hamda yosh ota-onalarga farzand tarbiyasi borasida turli xil tavsiyalar berilgan.

Xulosamizda mavzu yuzasidan olib borgan izlanishlarimizning barchasiga qisqacha to'xtalib oilada axloqiy munosabatlarni shakllantirish doir xususiy mulohazalarimizni umumlashtirib bayon etganmiz.

I. BOB. OILADA AXLOQIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirishning ilmiy pedagogic asoslari

Yurtimizda har bir yilni o'ziga xos nomlash yaxshi an'anaga aylangan. Shunga ko'ra, o'tayotgan yillar o'z mazmun-mohiyati va ahamiyati bilan hayotimizda alohida iz qoldirmokda. Jumladan, Prezidentimizning 2012 yil 27 fevraldagi "Mustahkam **oila yili**" Davlat dasturi to'g'risida"gi qarori bu boradagi an'analarni mazmunan to'ldirish hamda davom ettirishga karatilgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Zero, oilalar totuvligi va farovonligi yurtimiz taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek, har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni hamda ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda **oila** bag'rida shakllanadi. Xalqimizning azal-azaldan oilani muqaddas dargoh sifatida qadrlashi, uning mustaqilligi, totuvligi, tinch va osudaligini ta'minlash yo'lida astoydil harakat qilishi ham ana shu hayotiy haqiqatdan kelib chiqqan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, istiklol yillarida yurtimizda inson omiliga bo'lgan e'tibor va g'amxo'rlik yangi bosqichga ko'tarildi. Eng muhimi, bunda oilaning o'rni va mas'uliyati yanada ortdi. Avvalo, oilani ijtimoiy ahamiyatga ega institut sifatida takomillashtirish maqsadida mustahkam hukuqiy poydevor yaratilganligini aytib o'tish joiz. Konstitutsiyamizning 14-bobi to'laligicha **oila** va unga oid munosabatlar^{ga} bag'ishlangan. Unga ko'ra **oila** jamiyatimizning muhim negizi bo'lib, ota-ona voyaga etmagan farzandlarini tarbiyalashga va boqishga majbur ekanligi hamda voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzand o'z ota-onasi haqida qayg'urishi, g'amxo'rlik ko'rsatishi, onalik va bolalik davlat tomonidan himoya qilinishi aniq-ravshan belgilab qo'yilgan. O'zbekistan Respublikasining **Oila** kodeksida ham **oila** va nikoh, nikohga kiruvchilar huquqlari, majburiyatlari, qarindosh-

urug'lar, bolalar, vasiylik, homiylik munosabatlari to'liq qamrab olingan.

Xalqimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan naqlni bejiz aytmagan. Haqiqatan ham, **oila** muhiti bolaning tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois Mustahkam **oila** yilining mazmun-mohiyati yuksak ma'naviyatli komil insonni tarbiyalashga ko'maklashish g'oyasi bilan sug'orilgan. Ma'lumki, bugungi globallashuv jarayoni jadallashib, axborot texnologiyalari izchil rivojlanmokda. Mana shunday sharoitda farzandlarimizni yot g'oya va mafkuradan, turli diniy ekstremistik oqimlardan saqlaydigan eng ishonchli himoya ko'rg'oni **oila** hisoblanadi. Ota-onadagi madaniyat, ma'naviyat, iste'dod, mas'uliyat, kezi kelganda, o'g'il-qizlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham bolalardagi o'zgarish, intilish, kizikish ota-ona tomonidan nazorat qilinishi ayni muddaodir. Muxtasar aytganda, mamlakatimizda oilani har tomonlama ko'llab-quvvatlash, ularda sog'lom ma'naviy muhit qaror topishiga ko'maklashishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Shubhasiz, bu boradagi ishlarimiz bundan keyin ham yanada kengayadi. Zero, Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan etuk, o'z mustaqil fikriga ega, oqni qoradan ajratishga, taraqqiy topgan davlatlardagi tengdoshlari bilan bellashishga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, ularning sog'lig'ini asrash, hayotga yo'llashda oilaning o'rnini hech narsa bilan qiyoslab bo'liaydi.

Tadqiqot uchun tanlangan oilada axloqiy munosabatlarni shakllantirish, xususan oilada farzand tarbiyasi va oilada axloqiy munosabatlarni yo'lga qo'yishning mohiyati va mazmunini ochib berishga qaratilgan bo'lsada biz axloq, ma'naviyat tushunchalarini ham qisqacha ta'riflab o'tishni joiz deb hisobladik.

Oila jamiyatning bir bo'lagi shunday ekan, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy gurux munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Axloqiy tarbiyaning izchil va tartibli amalga oshirishda oila muxiti muxim ro'l o'ynaydi. Inson axloqiy, ma'naviy va ruhiy qiyofasini poydovori oilada qurildi. Shuning uchun xam mashxur allomalar oila

tarbiyasiga katta etibor berishgan va shu masalaga bagishlab bir qator asarlar yozishgan.

Hozirgi zamon tarraqiyoti har bir shaxisdan voqelikni to'g'ri tushunishni, xulosa chiqarishni, axloqiy poklikni va hissiy – asabiy chidamlilikni, jamiyatimizning hayotning barcha jabhalarida mustaxkam va faol bo'lishni talab etmoqda.

Kelajagimizning qanday bo'lishi hozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog'liq. Bunday ulkan vazifani amalga oshiruvchi muddat va manaviy boyliklarni yaratuvchi asos oilada. Oilaning jamiyatdagi o'rnini va o'ziga xos milliy xususiyatlari haqida. Islom Karimov bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. O'zbeklarni aksariyati o'zini shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilani qarindosh - urug'lari va yaqin odamlarining qo'shnilarining eson - omonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oiliy darajadagi manaviy qadriyat inson qalbining gavharidir, va yana “Xalqi - I.A.Karimov O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li”, “O'zbekiston” -T.1992.21-bobning ma'naviyat va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi, jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'li” muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljishda hal qiluvchi, tabir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir.

Bu fikrlar oila tarbiyasida ham o'ziga xos milliy xususiyatlarida o'z ifodasini topdi. Haqiqatda ham o'zbeklar o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh – urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon - esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish tabiiy – milliy xususiyatdir. Milliy xususiyatning oilada yosh avlod tarbiyasidagi o'rnini beqiyosdir.

Oilada axloqiy fazilatlarni ota – onaga hurmat, poklik, muloxoza va andisha bilan to'g'ri so'zlashi, bola tarbiyasida halolligi va adolatliligini,

ochiq ko'ngilik, mardlik, sodaqat, mehr - shavqat, I.A.Karimov "O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida, - T."O", 1995. 139-140. Diyonatlilik va xakoza sifatlarini yoshlar ongiga singdirib boriladi.

Imom G'azzolliy ham "Kimyoi soadat" asarida hololik haqida fikr yuritib: "Avvalgi ilm odam o'z nafsini tanimoqdir. Inson muayyam o'lchov me'yorga ko'ra, deb ta'kidlaydi u insoning ona shu chegaradan chiqishi uni ma'naviy tanazzulga olib keladi ". Bolalarni axloqiy tarbiyalashda halolik tarbiyasiz va xususiyatsiz tashkil etib bo'lmaydi. Bu kabi xususiyatlarni unitish oila va ijtimoiy hayotning tanazzuli demakdir. Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrida halollik tarbiyasiz barkomol insonni shakillantirish mushkul. Bu boroda ko'plab muamollar mavjud.

Axloqiy masala insoniyat yer yuzida paydo bo'lgan daqiqadan boshlab, to hozirgacha o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Z.M.G'azzoliy "Kimyo saodat"..T."Kamalak" 1994. 65- betlar yuzaga kelmasligini uchun axloq tarbiya negizi bo'lib qalmog'i shart.

Axloq - odobli bo'lishi, ota – onalar va kattalarga hurmat, samimiylik, inoqlik, qadir- qiymat, vijdonlik, iffatlik, mehr – oqibatlilik, rostgo'ylik, tantilik, sadoqatlilik, poklik, mexmondo'slik, odoblilik, o'zoro yordam kabi insoniy xislatlar o'zbek xalqi ma'naviyatining ramzi sanaladi. Tug'ushganlarga avvalo ota – onaga nisbatan milliy tuyg'udagi munosobat, qon – qarindoshlik rishtalari ham milliy ruhiy atni aks ettirdi.

Ushbu narsalarning barchasi xalqimizning boy madaniyati, tili, adabiyoti, obidalarida o'z ifodasini topdi. O'zbek oilalarida farzandlariga yoshligidan boshlab odolat tushunchasini singdirib boradilar. Adolat insonning har tamonlama barkamolligini belgilovchi axloqiy – ma'naviy mezonlaridan biridir. U arabcha so'z bo'lib "adolat" - odillik, to'g'rilik degan ma'noni anglatadi. Bu so'zning zamirida poklik, halolik, ma'rifat, madaniyat, oriyat, haqiqat, to'g'rilik, kabi yuksak insoniy fazilatlar mujassamlashgan. Adolat hukmron bo'lgan oilada o'zoro xurmat,

tinchlik, kelajakka ishonch, asoyishtalik barqaror bo'ladi, hayoti mazmunli o'tadi. Oilada ota – onalar farzandlari tarbiyasida adolatli bo'lishlari talab etadi. Chunki ota – ona va farzandlar orasidagi adolatning axloqiy va huquqiy buzulishlari salbiy sifatlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Prezidentimiz I.A.Karimov mamlakatimizning har bir fuqorasidan, katta yoki kichik har bir rahbardan adolatparvar huquqiy demokratik jamiyat qurush uchun intilayotgan bir davrda adolat bilan ish yuritish zarurligini qayta – qayta takrorlaydilar. U yoki bu millatning, xalqning kuchi va buyukligi, uning adolatparvarligi bilan belgilanadi. Sohibquron Amir Temur ham “Kuch adolatdadir” deb bejiz aytmagan. Adolat hukmron bo'lgan xalqning, mamlakatning kelajagi buyukdir. Shunday ekan oilada adolatli insonni tarbiyalash ota – onadan katta ma'suliyatni talab etadi. Adolatli insonning fikrlari sog'lam bo'ladi. U haqiqatga to'g'ri qaraydi, nahoqlikka, yolg'onga, bo'xtonga, fisqu – fasodga, tuxmatga shavqatsiz munosabatda bo'ladi. O'z nafsimi tiyish, xushmuomalalik, hojatbororlik, kechirimlilik, keng fe'llik uning uchun muhim axloqiy – ma'naviy qadriyat hisoblanadi. Insonparvarlik har bir insoning qalb amiri, hayotiy ehtiyoji darajasida ko'tariladi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek “Insonparvarlik” – bu o'zbek xalqi ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Shavqatsizlik va zo'ravonlik uning tabiiy atiga yotdir. Bizning xalqimiz o'zining voqealariga boy ko'p narsalarni boshidan kechirdi - madaniyati, ilm fan, o'z davlatchiligi yutuqlari nashidasini surdi, o'zoro nizolar, begonalar asorati alamini tortdi, eng yaxshi o'gil – qizlardan judo bo'ladi. Lekin tarixning o'yini ham, omonsiz jangu jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochko'zlik ham xalqimizning insoniylik tabiiyatiga dog' tushira oladi. O'zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug'lik, bolalarga mehir, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarga qayg'usiga hamdartlik mujassamlashtirilgandir.

Insonparvarlik o'z tarkibiga insoning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, ya'ni odamlar o'rtasidagi o'zaro yaxshi munosabat, do'slik, ota – onaga sadoqat, mehnatsevarlik, diyonat, mehribonlik, to'g'rilik, odillik,

insof, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, saxiylik, muloyimlik, kattalarga hurmat qilish, kichiklarga izzatda bo'lish, raxmdillik, qatidan, sabr – toqat, mexr – shavqat, kabilir qamrab oladi.

Oilada bolalarga yoshligidan ana shu go'zal fazilatlarni qaror toptirishga aloxida ahamiyat berish lozim. Bugungi kunda yosh avlod ongiga, qoniga

I.A.Karimov “O'zbekiston buyuk kelajak sari” – T. “O'zbekiston”, 1998, 56 bet.

insoniylik tuyg'ularini singdirilib, inson sifatida o'z millat va xalqi oldidagi insoniylik burchini ado etishga o'rgatmoqda.

E'tiqot insonning ichki ruhiyati bog'liq muhim axloqiy – ma'naviy xususiyatlaridir. E'tiqot shaxsning o'zigagina mansub fazilat bo'lib, tabiat va jamiyatda bo'layotgan hodisalarga shaxsiy faoliyati, xatti – harakati, atrof muhitda bo'layotgan u yoki bu g'oyalar o'rtasidagi bahs – munozaralar jarayonidagi ishtirokida namoyon bo'ladi. E'tiqot vijdon erkinligi tamoyillariga asoslanadi. E'tiqot insonning axloqiy - ma'naviy fazilatlar ichida eng muhimi o'rinda turuvchi qadriyat hisoblanadi.

“E'tiqot erkinligi - kishi ongida chuqur o'rnashib qolgan va amalga oshirilishi shaxsining kundalik ehtiyojiga aylangan intilishi, xatti – harakati va dunyo qarashlari tizimi»dir.

E'tiqod mustahkamligi insonning kelajagini, hayotidagi o'rnini belgilovchi mayoqdir. Sog'lom fikrli, sog'lom etiqodli ota – ona o'z farzandiga eng katta boylik sifatida sog'lom erkin e'tiqodli meros qoldirsagina mustaqil O'zbekistonning har tamonlama taraqqiyoti uchun fidokor fuqarolarning kelajagi avlodlari kamol topishi muqarrardir. Sharq xalqlarida qadimdan kattalarni hurmat qilishi, kichiklarga izzatda bo'lishi, insofli bo'lishi, rostgo'ylik, xushmuomalalik, mexmondo'stilik, kishining odob – axloqini ko'rsatib beruvchi qoidalari sifatida amal qilinib keladi. Bu axloq qoidalari har bir shaxsga to'liq namoyon bo'lgan taqdirdagina u ma'naviy barkamol shaxsga hisoblanadi. Axloqiy tarbiyada rostgo'ylik

muhim xususiyatlardan biridir. Ota – onalar bolalarining to'g'ri tarbiyalashlari uchun avvalo o'zlari tarbiyalangan bo'lishlari shart. Bolalarning yoshligidan haqiqatchi, rostgo'ylik, to'g'riso'zlikka o'rgatish lozim.

Hayo – Sharq xalqlarining o'ziga xos bo'lgan axloqiy go'zallikning ko'rkam ko'rinishidir. Shuning uchun ham hayo tushunchasi o'ta milliy tushuncha. Hayo kishining xulq - atvori, yurish – turish, tevarak atrofdagilariga munosobati, kiyinishda sipolik, birovning yuziga tik qaramaslik, gap qaytarmaslik, andishalik, or – nomusli bo'lishli, gapirganda o'ylab gapirishi, baland ovozda gapirmaslik, qattiq kulmaslik kabi mezonlarda yoqqol namoyon bo'ladi.

Sharq ayollarining hayo – ibosi badiiy asarlarda, xalq qo'shiqlarida, shoirlarning she'riy misralarida ulug'lanib kuylanadi.

Ushbu yuksak insoniy qadriyatni asrab – avaylashi, uni farzandlar xulqida shakillantirish, oilaning jamiyatning ma'naviy barkomolligini ta'minlash negizidir.

Sadoqat - insonlarning burch va vazifalariga vijdonan, halol to'g'ri adolat bilan munosabatda bo'lish demakdir. Sadoqat mazmunan ko'p qirali qobiliyatining aniq yo'nalishga qaratilganligiga ehtiyoj va qiziqishi milliy ongi o'ziga xos xususiyatlariga ega O'zbek xalqining tarixiy an'analari, urf - odatlari, udumi, rasum – rusumlari, axloq me'yori, turmush tarzi, ma'naviy qadriyatlari shaxslararo munosabati muloqat moromi va xususiyati boshqa xalqlarnikidan ma'lum darajada ajralib turadi.

Milliy harakter o'z ichiga irodaviy sifatlarni (Mustaqillik, chidamlilik, pirinsiplik, o'z – o'zini tuta bilish qat'iylik, matonat) kabilarni va axloqiy xislatlarni (poklik, intizomlilik, samimiylilik, haqiqiylik, insonparvarlik, va xakozalarning) qamrab oladi. Milliy harakter odamlarga bo'lgan munosobatlarni ifodalaydi.

Sharq xalqlari uchun mahim xususiyat kunlari ham boshga ish tushgan oilalarga ham bir –biriga hamdard va hamnafas bo'lishidir. Insonlar

o'rtasidagi bunday birlik va hamjihatlikning muxum vositasi – mahalladir. Mahalla oilalardan tashkil topadi farzandlar oila bog'rida komol topganlari kabi oila ham mahalla ichida ravnaq topadi, nurli kelajak sari intiladi. Mahalla o'zbeklarning tarixan shakllangan yagona maqsad bilan yashab foliyat ko'rsadadigan makoni, hisoblanadi u o'zbek halqining turmush tarzini, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi milliy an'analarini uruf-odatlarini axloqiy ma'naviy qadriyatlarni axloqiy avlotddan-avlotga yetkazuvchi muqaddas maskan bo'lib kelgan. Mahallada o'sayotgan har bir o'g'il - qizning axloq –odobi uchun butun mahalla axli mas'uldir shuning uchun ham “Bir bolaga yetti qo'shni ota –ona “, “Bir bola tarbiyasiga yetti mahalla ota–ona”kabi naqlar bejiz paydo bo'lmagan. Mahalladoshlarining har bir yosh tag'dirga javob garligi ularni nazorat qilishi barkamol insonni tarbiyalab yetishtirishning negizidir .Xulq –odobi yaxshi har tomonlama namunali farzand mahallani obro'sidir, noqobul, axloqan noqobil farzand esa mahalla uchun qora dog'dir. Malumki har bir mahalada ikki yosh undan ortiq xona bo'ladi Bu o'zbeklarga xos xussiyatdir Bu yerda odamlar choyxo'rlik qilish davomida turli mavzularda, suxbatlar, fikir almashuvlari, bo'lishi tabiiy hol. Shuningdik, askiya va hazil - mutoyiba gurunglar ham bo'ladi. Bu jaroyonda mahallaning oqil – dono kishilari ba'zi oilalarda tarbiya barosidagi kamchilik va nuqsonlarni malol kel maydigan tarzda tilga olishlari asnosida to'g'ri yo'lga yo'naltirishlari mumkin. Yoxud ma'naviy axloqiy tarbiya yo'sinida bir – birlariga maslahatlar berishlari faydali bo'ladi.

Kishilarning o'zaro samimiy salomlashuvi, ayniqsa notanishga ham salom berib o'tishi milliy urf – odatlarimizning ibratli va o'ziga xos bir ko'rinishi hisoblanadi. “Assalomu alaykum “ - tinchlik , salomatlik ramzi, osoyishtalikka beg'arazlikka yetaklaydigan ta'sirchan vosita. Salomlashish - bu hurmat – ehtirom, do'stlikka undovchi nido, tanishish istagi, do'stlik - birodarlik aloqalarini bog'lovchi ko'prik xohish istaklarini aks ettiruvchi qalb sadosidir. Shuning uchun xalqimiz “Bir kun tuz ichgan joyingga qirq

kun salom ber”, - deydi. Ushbu odamiylik, odob va axloq, nazokat va hurmat – e’tibor, ochiq qalblilik, shirinsuxanlik, dilkashlik, xushtabassumlik, xushta’vozelik kabi insoniy xislatlarning yaqqol timsolidir.

O’zbek oilalardagi bolajonlik, bolaparvarlik, ota-onalarga hayot mazmuni ularning oilaparvarligida yani, oila uchun hayotini bag’ishlaganligi, oilani ta’minlash, g’amxo’rlik, fidoiylik, ko’rsatib bolalarni ko’p bo’lishi va ularga munosib hayot tashkil etishga qaratganligi bilan ajralib turadi. Tarbiya borasida kam bolali oilalarga nisbatan ko’p bolali oilalarda bolalar tarbiyasi ancha yengil kechadi. Chunki, ko’p bolali oilalardagi bolalar ota – onalarining harakatlarini, aka va opalarining ular to’g’risida g’amxo’rliklarini, ayniqsa, bir –biriga bo’lgan do’stona munosabatlarini, uydagi har xil vazifalarini sidqi dildan bajarashni, kichiklarning kattalarga odobi bilan munosabatda bo’lishlari tabiiy holda ko’radilar va kuzatadilar. O’zlarida ham ana shunday axloqiy sifatlarni shakllantirish sifatlari vujudga keladi. Shu sababli ko’p bolalari bo’lgan oilalarda ota – onalarning g’amxo’rliklarini o’ziga xos xususiyatni kasb etadi.

Kattalarga hurmat va bo’ysunish o’zbek oilalardagi an’anaviy tarbiya usullaridan biridir.

Biz ushbu paragrifda hozirgi oilalardagi axloqiy tarbiyaning xususiyatlarini yoritib berdik. Bunday o’zbek oilalardagi axloqiy tarbiyaning munosabatlarini, milliy xususiyatlarni xalqimizni ichki go’zalligini boy ma’naviy va ruhiy qiyofasini va takrorlanmas xususiyatlarini bayon qilib o’tdik. Navbatdagi paragrifda oilada axloqiy munosabatlarni negizi va mazmuni, moxiyatini ochib berishga harakat qilamiz. Xulosa qilib aytganda kishining haqiqiy insonparvarligi, boy ma’naviy go’zalligini to’laligi bilan vatan, jamiyat manfati yo’lida jon fido qilishda, inson osoyishtaligi, baxt – sadoti yo’lida qayg’yrishda o’z ifodasini topdi. Pok qalibli, sofdil, diyonatli – vijdonli, irodali, xalqimizning oliyjanoblighi uning tanishga ham, begona ham beg’araz yordam qo’lini cho’zishga namoyon bo’ladi.

Keksalarni, xotin – qizlarni, izzat – hurmat qilishi, o'zoro yordam va bolalarga mehr – muxabbat tuyg'ularini ifoda etuvchi an'analar xalqimiz hayotida uzoq zamonlardan beri davom etib kelmoqda. Shuning uchun inson shaxsining ta'kid torishiga ijobiy tasir ko'rsatadigan an'analardan makyab o'quvchilarini tarbiyalashda muntazam foydalanish zarur.

1.2 Buyuk allomalarimiz oilada axloqiy tarbiyaning ahamiyati haqida qarashlari

“Kishilarning ongidagi, ularning ma'naviyatida yuz beradigan o'zgarishlar birdaniga sodir bo'lmaydi. Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi – qayta tiklanayotganligi, - deb yozadi I.A.Karimov, - jamiyatimizni yangilash va taraqqiy yettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda – hal qiluvchi ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir”³. Bu vazifaga erishish esa xalqning ijodiy yaratuvchanlik mehnatiga oilaviy tarbiyaga alohida e'tibor berish zarur. Oilaviy tarbiya asosida esa bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalash muammosi yotadi.

Oilada axloqiy tarbiyaning rolini ko'rsatish, unda ota-bobolarimizdan mepros bo'lib qolgan axloqiy fazilatlarni egallashning naqadar ahamiyatli ekanligini ilmiy nazariy jihatdan tahlil etish juda muhimdir.

“Xalqning axloqiy mezonlari uning yillar davomida yerishgan ulkan ma'naviyati bilan uzviy bog'langan. Ana shuning uchun axloqiy tasavvurlarimiz, axloqiy qadriyatlarimiz millat uchun, uning obro'yi va istiqboli uchun xizmat qilsagina, o'z o'timishini, ma'naviy merosini, qadriyatlarini unutmaydi”⁴.

“Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi”⁵, - deb o'rinli ta'kidlagan edi prezidentimiz I.A.Karimov.

³ И.А.Каримов. “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолотлари”. –Тошкент, “Ўзбекистон”, 1997 й, 139-140

⁴ И.А.Каримов. “Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда”. –Тошкент, “Ўзбекистон”, 1999 й, 33-34 бетлар.

⁵ Ўша адабиёт, 3-4 бетлар.

Haqiqatdan o'zbekona milliy axloqda ota-bobolarimizning nodir qo'lyozmalari tarixiy-tajribalari davrlar sinovidan o'tgan saboqlari va bizga doimo madad bo'lib turgan ruhiy quvvatlari jamuljamdir. Ularning sharofatlari tufayli milliy-axloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha avlodlardan-avlodlarga o'tib kelmoqda. Chunki bir tomchi bo'lsa ham ularning qoni tomirimizda oqayotir. Ana shu qonni jo'sh urdirmoq bilan yuraklarimiz uyg'oq, dilimiz ravshan, tafakkurimiz munavvar. Ana shunday kayfiyat bizning dilimizda ko'p yillardan beri yashirinib kelinar edi. Endilikda milliy istiqlol tufayli milliy-axloqiy qadriyatlarimiz qaytadan tiklandi. Ulardan bolalarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda foydalanish oilaviy tarbiyamiz uchun obektiv zarurtga aylandi.

Sharq xalqlarining bir necha ming yillar mobaynida yaratgan bebaho odob-axloq qoidalari, qadriyatlari mavjud. Ularni qaytadan tiklash va hayotga tadbiq etish muhim masalalardan biridir.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida ta'lim-tarbiya masalalari muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, ular oila va oilada farzand tarbiyasiga katta e'tibor berganlar. Zero yosh avlod tarbiyasi insoniyatning kelajak taqdirini belgilaydigan, ularni ijobiy mezon bilan qurollantiradigan sifatlar bo'lganligi uchun ham mutafakkirlar bu muammoni hal qilishga harakat qilib kelganlar. Muhammad ibn Muso al Xorazmiy, Abu Nosr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn sino, Muhammad Qoshg'oriy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Umar Xayyom, Ahmad Yugnakiy, Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o'rta qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Shoir mutafakkirlar qomusiy asarlarida va odob axloqqa bag'ishlangan risolalarida o'zlarining pedagogik qarashlarini ifodalaganlar va ular pedagogik hamda falsafiy-didaktik xarakterga egadirlar. Bular jumlasiga Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul Haqoyiq", Kaykovusning "Qobusnoma", Shayx Sa'diyning "Bo'ston va guliston", Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Hayrat-ul abror" va "Mahbub-ul

qulub”, Nizomul-mulkning “Siyosatnoma” kabi pandnoma, nasihatnoma tarzda yozilgan asarlari kiradi.

Shuningdek, o'tmishda diniy-tasavvufiy asarlar ham yozildiki, ularda bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari ilgari surilgan bo'lib, ular ma'naviyatimiz tarixida munosib o'rin egallaganlar. Imomo al-Buxoriy, Imom al-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Az-Zamaxshariy, Sulaymon Boqirg'oniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro va boshqalar shular jumlasidandir.

“Bizga tarixdan ma'lumki, qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim”,⁶ - degan g'oyani ilgari surgan edilar. Bu g'oya fransuz xayoliy socialistlari Sen-Simon, Sharl Fure va David Rikardolarning asarlarida keyinchalik rivojlantirildi. Ular o'z fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liq deb isbotlamoqchi bo'lganlar. Shunga ko'ra, bola tarbiyasi bilan asosan davlat shug'ullanishi kerak, degan g'oyani ilgari surganlar. Ammo Sharq mutaffakkirlari, bola tarbiyasi bilan ota-ona shug'ullanishi kerak, degan xulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e'tibor beradilar.

Umuman, oilada bola tarbiyasi masalasi juda qadimdan mutafakkirlarni qiziqtirib kelgan, ular bu masalaga hayotiy faoliyatning muhim bir tomoni sifatida qaraganlar va uni hal etishni o'zlarining vazifasi deb hisoblaganlar.

Eramizdan avvalgi 528-529 yillar orasida buyuk mutafakkir Zardusht tomonidan yaratilgan “Avesto” kitobida ham ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarni ko'rish mumkin.

“Avesto”da ta'kidlanishicha, tarbiya hayotning eng muhim tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o'qishni va so'ngra esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pag'onaga ko'tarilsin. Shu boisdan, har bir bolani yosh paytidanoq mehnat qilib, mehnatning tagi rohat ekanligini anglatish uchun daraxt ko'chati o'tqazishga,

⁶ Асқарали Шаропов. “Шарқ тафаккури хазинасидан”. “Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1986 йил, 128 бет.

uy-ro'zg'or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug'ullanishga o'rgatilishi shart.

Bizga tarixda ma'lumki zardushtiylik dinidan so'ng islom dini hukmronligi boshlanadi. Islom dinining tarqalishi kengayib borganligi sari uning qonun-qoidalar, g'oyaviy fikr-mulohazalarni kelib chiqishi tabiiy edi. Shu sababdan, payg'ambarimiz Muhammad Allayhissalomning hayotlik chog'larida aytgan so'zlari, qilgan ishlari, yo'l-yo'riqlari, pand-nasihatlar uning hadislar va sunnatlari hisoblanib, islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyin ikkinchi manba hisoblanadi.

1) Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Farobiy o'zining ko'p qirrali ijodi bilan inson bilimlari rivoji asarlarida oqilona davlat tizimi, insoniyat jamiyati haqidagi nodir va dono fikrlarga duch kelamiz. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri", "Baxt saodatga yerishuv haqida", "Aql ma'noli haqida risola" kabi asarlarning muallifidir. Uning uqtirishicha, insonning barcha qobiliyat va fazilatlar ikki tomonga ega. Birinchisi – tug'ma, irsiy, tabiiy xislatlar bo'lsa, ikkinchisi, tajriba, amaliyot, sharoit ta'sirida tarkib topadigan xislatlardir. Shuningdek, bola tarbiyasida bir-biri bilan bog'liq bo'lgan xislatlarni hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi. Mutafakkirning bu qarashlari hozirgi zamon pedagogikasining muhim tamoyillaridan biri bo'lgan ijtimoiy va biologik tomonlarning o'zaro munosabatining birligi degan qoidaga juda mos keladi.

Farobiy o'zining odob-axloq haqidagi ta'bir joiz bo'lsa, axloqiy tarbiya haqidagi qarashlarini muayyan bir tizimga tushiradi. Uning so'ziga qaraganda, nimaiki baxtni qo'lga kiritishga xizmat qilsa – yaxshilikdir, nimaiki baxtga erishishga xalaqit bersa, mutlaq yomonlikdir. Bu fikr uning axloqiy qarashlarida asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra, u o'z fikrini yanada chuqurlashtirib, ko'zda tutilgan maqsadni qo'lga kiritishga yordam beruvchi qobiliyat va xatti-harakat – yaxshilik, uning aksi bo'lsa yomonlikdir, degan g'oyani ilgari suradiki, bola tarbiyasi bir maqsadga qaratilgan holda olib

borilmog'i va u aqliy va axloqiy tarbiya birligidan iborat bo'lmog'i lozim degan xulosa kelib chiqadi.

2) Oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Bakr Muhammad ibn Al-Abbos Al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjud. Uning aytishicha “ota-onalar ikki xil: tug'ilish otasi va ta'lim berish – otasi: birinchisi, jismoniy hayot sababli, ikkinchisi, ruhiy xayot sababli”. Shunga ko'ra ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhimdir. Uning quyidagi so'zi ancha ibratlidir:

“Zamondan yaxshiroq ta'lim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq ta'lim oladigan o'quvchini ko'rmadim”⁷. Uning bu so'zlaridan bir tomondan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta'sirni anglasak, ikkinchi tomondan inson shaxsi ta'lim natijasida kamolotga yerishib borishi mumkinligini anglaymiz.

3) Abu Rayhon Beruniy “O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “E'tiqodlar va dinlar haqida” kabi ko'pgina asarlarida bolalarni axloqiy tarbiyasiga oid qimmatli fikrlarni yozadi. Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman axloqiy tushunchalarni insonning tabiati bilan bog'laydi. Inson tabiati ota-ona. Avvalo oilada shakllanadi. Shunga ko'ra, bola tarbiyasida ota-ona ta'siri va namunaga benihoya kattadir. Masalan, u ayollarga nasihat qilib, Abdulla ibn Ja'far tilidan shunday deb yozadi. “Rashkdan saqlangin. U taloqning kalitidir. Yeringga tez-tez tanbeh qilishni senga ta'qiqlayman. Chunki, tanbeh nafrat uyg'otadi. O'zingni bezab yurgin. Buning uchun yaxshi vosita surmadir. Yana xushbo'y atirlardan foydalangin. Ularnig ichida eng yaxshisi suvdur”⁸. Uning bu fikrlari bevosita oilada farzand tarbiyasiga ta'lluqlidir.

Beruniy tan va ruh pokligi masalasini ham o'rta tashlaydi. Oilada tozalik, pokizalik va tartib mavjud emas ekan, u yerda ma'naviy poklik ham bo'lmaydi. Bu fikrini tanni toza tutish bilangina cheklab bo'lmaydi, balki ko'p harakat qilishga chaqiradi. Bu harakat mehnat qilish demakdir. Uning qalb va harakat haqidagi fikri insonning tani bilan ruhi pokligini bir butunligi

⁷ Малика Иномова. “Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбияси”. Т., 1999 йил, 152-бет.

⁸ Абу Али Ибн Сино “Абу Райхон Беруний”, А.Қаюмов, Т., “Ёш гвардия”, 1987 йил

to'g'risidagi g'oya bilan bog'liqdir. Bu narsa bola tarbiyasida jismoniy sog'lomlik bilan ma'naviy kamolot o'rtasidagi o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik haqidagi bugungi kun talabi bilan hamohangdir. Beruniy aytishicha, odam-odamni talamaydigan va xo'rlamaydigan yomonchilik bo'lmaydigan davrlarda odamlar tinch-totuv yashaganlar, ular o'rtasida o'zaro oqibat bo'lgan, birgalashib savob ish qilganlar. Binobarin, bunday ma'naviy muhit bolalarning tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Oliyjanoblik odamgarchilik jamiyatda qaror topsa, bu fazilatlar kishilar hayotiy faoliyatiga kirib borishi oson bo'ladi, degan fikrni olg'a surgan.

Beruniyning yozishicha, kishilar hayotlarida turli holatda bo'ladilar va turlicha harakat qiladilar. Ularning ayrimlari bilan maqtaladilar, boshqalari bilan qoralanadilar. Bularning hammasi bolalar ko'z o'ngida yuz beradi. Buni to'la his etgan ota-ona ehtiyot bo'lmoqlari zarur. Ota-onalar bilan birga harakat qilishlari, turli o'yinlar uyushtirishlari, ular bilan birga o'zaro suhbatlar o'tkazishlari maqsadga muvofiq deb maslahat beradi. Bu bilan Beruniy bolalarni tarbiyalashning muayyan uslubiyotini ham asoslab bergan.

Beruniy ota-onalarga qarata bolaning mo'tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq g'azablanishdan, qo'rqish va xafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali yerishilishini aytib, ularni hohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiriladi. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqaradi. Yaxshi xulqlarni paydo bo'lishi bola ruhiyatiga ta'sir qilibgina qolmasdan, uning fiziologik o'sishiga ham yordam beradi. Yomon xulq esa turli mijoz buzilishlariga ham olib keladi. Aksincha bola organizmidagi o'zgarishlar uning ruhiyatidagi, xatti-harakatidagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Mutafakkir bola xulq-atvorining mo'tadilligi natijasida tan va ruh sog'lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab beradi.

Beruniy ota-onalarga qarata bolaning mo'tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq g'azablanishidan, qo'rqishdan va xafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni xohlagan va foydali

narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiriladi. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqaradi. Yaxshi xulqlarni paydo bo'lishi, bola ruhiyatiga ta'sir qilibgina qolmasdan, uning fiziologik o'sishiga ham yordam beradi. Yomon xulq esa turli mijoz buzilishlariga ham olib keladi. Aksincha, bola organizmidagi o'zgarishlar uning ruhiyatidagi, xatti-harakatidagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Mutafakkir bola xulq-atvorining mo'tadilligi natijasida tan va ruh sog'lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab beradi.

Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o'rinni egallaydi. U o'zining qator asarlarida bolani salomatligi, uning tarbiyasi haqida eng muhimi bola – ruhiyatini o'rganish borasida ko'plab qimmatbaho fikrlarni asoslagan. Ularning hammasi bir butun bo'lib, muayyan pedagogik qarashlar tizimini tashkil etadi va u ma'naviy axloqiy barkamol insonni shakllantirish haqidagi g'oyaga borib taqaladi.

Ibn Sinoning “Inshorat”, “Donishnoma”, “Xay ibn yaqzon”, “Salamon va ibsol”, “Tib qonunlari”, “Tadbir ul-manozil” kabi asarlarida tarbiyaning barcha shakllariga oid qarashlari mavjud. Bu qarashlar yuz yillar davomida avlodlar uchun tarbiyalash maktabi bo'lib kelmoqda. Masalan, uning “Tadbir ul-manozil” nomli asarida katta bir bob oila va oilaviy tarbiya masalasiga bag'ishlangandir.

Ibn Sino oilada bola tarbiyasi ancha murakkab va nozik bo'lib, uni bolaning yoshligidan boshlash va izchillik bilan olib borish lozimligini uqtiradi. U ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalib “Alla” ikki vazifani bajaradi, deydi. Birinchisi, uni tebratish orqali bolaga jismoniy orom bag'ishlanadi; Ikkinchisi, beshikni bir maromda tebratishdan onaning mehri jo'sh uradi, bolasiga bo'lgan muhabbatidan onaning orzu-umidi yurak to'ridan siqilib chiqaradi. Bu o'ziga qo'shiq bolasiga qasidadek yangraydi va u farzandining murg'ak qalbiga, butun shuuriga singib boradi. Shu tarzda bolada o'zi ham anglamagan holat paydo bo'ladi. U asta-sekin bu yorug' olamni anglay boshlaydi. Ana shu anglashdan o'rganish boshlanadi. Xuddi shu o'rganish

tarbiyalanishdir. Zotan, o'rganish sezishdan boshlanadi. Ibn Sino ana shu holatga e'tiborini qaratib, "Yosh bolaning sezgirlik quvvati katta odamga teng keladi"⁹, - degan fikrni bildirgan.

Ibn Sino "Tib qonunlari" nomli asarida bolaga tug'ilmasdan turib g'amxo'rlik qilish uchun onaning salomatligi, jismoniy va ruhiy pokligi zarurligini ta'kidlab, shaxs salomatligini saqlashni faoliyatning boshqa tomonlari bilan birga olib borish g'oyasini ilgari suradi.

Ibn Sino bola tarbiyasida oila boshlig'i – otaning roliga alohida e'tibor beradi. "Aga oilada, - deydi u, - oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa, u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda undan yomon natijalar kelib chig'ishi mumkin". Bola tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilsa, oila baxtli bo'ladi. Oilaning eng muhim vazifasi bola tarbiyasi hisoblanadi. Ota-ona kim bo'lishidan qat'iy nazar bu vazifani mas'uliyat bilan ado etishi lozim.

Ibn Sino bola tarbiyasida otaning burchi haqida to'xtalib o'tadi. Eng avvalo, ota farzandi tug'ilgach unga yaxshi ism qo'yishi va tarbiyalashga kirishmog'i lozim. Ayniqsa, bola tarbiyasida ota-onaning yaxshi fazilati, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar esa yuksak axloqiylik asosida bo'lishini ta'kidlaydi.

"Tadbir ul-manozil" asarida yer va xotinning yaxshi sifatlari sanab o'tiladi. Ularning shaxsiy namunalari bola uchun o'rnak bo'lib, uning kelajak taqdirini belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida uqtiriladi.

Ibn Sinoning yaxshilik va yomonlik tushunchalariga bo'lgan munosabati Farobiy va Beruniylar fikriga hamohang bo'lib, u ham irsiyat, muhit va tarbiyaning ta'siri bola tarbiyasi uchun birdek muhim deb hisoblaydi. U yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, muhit odatlari natijasida vujudga kelishini qayd qilib o'tadi.

Ibn Sino oilada bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda mehnasevarlikning rolga alohida urg'u berib, ota-onalarni farzandlarga nisbatan kasb-hunar

⁹ Сафо Очил умумий таҳрири остида. "Ўзбек педагогикаси антологияси". Т., "Ўқитувчи", 1995 йил, 464 бет

o'rgatishga chaqiradi. Mehnatni ulug'laydi. Mehnasiz hayot kechirishning bolaga bo'lgan salbiy ta'sirini ko'rsatib beradi. Ayiqsa, Ibn Sino aqliy, axloqiy, yestetik va jismoniy tarbiyaning birligi va ularni amalga oshirish yo'llari haqidagi fikrlari bugungi kunda ham ijtimoiy va amaliy ahamiyat kasb yetmoqda hamda milliy –ma'naviy qadriyat sifatida e'tiborga loyiqdir.

Oila va oilaviy tarbiya borasida XI asrda yashab, ijod etgan mashhur ulug' shoiri mutafakkir va donishmandi Yusuf Xos Xojib o'zining “Qutadg'u bilig” (“Qut ato etgan bilim”) nomli asarida keng to'xtalib o'tadi. U o'z davrida va o'zidan oldingi mutafakkirlar o'rtaga surgan barkamol insonni tarbiyalash g'oyasini asosiy maqsad qilib qo'yadi. Insondagi mukammallik esa uning xusni xulqi bilan bog'liq deydi. Husni-xulqining zamirida esa yezgulik yotadi.

Mutafakkir “Qutadg'u bilig” asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib shunda deb yozadi: “Farzand qanchalik bilimli. Aqlli-hushli bo'lsa, ota-onaning yuzi shunchalik yorug' bo'ladi”. U bola tarbiyasida otaning mas'uliyatiga alohida e'tibor beradi. “Kimning o'g'il qizi yerka bo'lsa, - deb yozadi u, unga shu kishining o'zi mungli bo'lib yig'laydi. Ota bolani kichikligida bebosh qilib qo'ysa bolada gunoh yo'q, barcha jafo otaning o'zida; o'g'il-qizning xulq-atvori yaramas bo'lsa, bu yaramas ishni ota qilgan bo'ladi. Ota bolalarni nazorat qilib, turli hunarlarni o'rgasa, ular ulg'aygan o'g'il-qizim bor deb sevinadi; o'g'il-qizga hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe'l-atvorlari go'zal bo'lsin”¹⁰-deb ota-onalarga maslahat beradi. Bola asta-sekin hunar o'rganib, hayotdan ta'lim olib bilimdon bo'ladi, chinakam insoniy go'zallika yerishadi. Inson faqat farzandlariga yaxshilik urug'ini sochibgina qolmasdan, bu urug'ni parvarish ham qila bilishi zarur. Bu narsa ular tarbiyasida zohir bo'ladi. Mutafakkir yaxshilik va yezgulik chinakam insonlarning olijanob fazilatidir, degan xulosaga kelar ekan, undan olamda agar yaxshi kishilar bo'lmaganida haqiqiy insoniylik ham bo'lmas edi, degan falsafiy xulosaga keladi.

¹⁰ Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг”. –Тошкент, “Юлдузча”, 112-бет.

Yusuf Xos Hojib qarilarni hurmat qilish, ular haqida behuda soʻz aytmaslik, ular huzurida odob va kamtarlik bilan soʻzlash joizligini uqtirib shunday degan edi:

Uluqqa etishsa kichik hurmati,

Ulugʻ ham kichikka hurmat koʻrsatur.

Yusuf Xos Hojib bolalar tarbiyasini juda murakkab jarayon deb tushunadi. U beldan madorni, tandan quvvatni, koʻzdan nurni, dildan oromni talab qiladi. Uning taʼkidlashicha, agar insonning oʻzida goʻzal fazilatlar boʻlsa, ularni boshqalarga oʻrgatish lozim. Lekin odob-axloq, rasm-rusum odat va irodani hosil qilish uchun zoʻr kuch va harakat kerak boʻladi. Bu narsa taʼlim va tarbiya natijasida paydo boʻladi. Bu olijanob vazifani bajarish esa ota-onaning zimmasidadir. Chunki Yusuf Xos Hojib zamonasida ijtimoiy tarbiya rivojlanmagan, bola, asosan oilada tarbiyalanib, shaxs sifatida shakllanar ekan.

Sharqda keng tarqalgan pandnoma tarzida yozilgan mashhur asarlardan biri Unsurul ma-oliy Kaykovusning “Qobusnoma” sidir. Bu asar yuqorida toʻxtalib oʻtgan mutafakkirlarimiz asarlari qatorida Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida muhim oʻrinni egallaydi va qanchadan qancha avlodlarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda oʻz hissasini qoʻshib kelmoqda.

“Qobusnoma” falsafiy-didaktik asar boʻlib, shaxs shakllanishining barcha tamonlarini oʻz ichiga oladi. Uning “Farzand parvarish qilish zikrida” degan bobi bevosita oilada bola tarbiyasiga bagʻishlanadi.

Asarda oʻz davri uchun qimmatli boʻlgan va bugungi kun uchun ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan gʻoyalar oʻrtaga tashlanadi. Uning fikricha, bola tugʻilgandan soʻng jonli mavjudot sifatida fiziologik oʻsa boshlaydi. Uning oʻsishi jarayonida unda yaxshi va yomon xislatlari zohir boʻladi. Shunga koʻra, uning oʻsishi parvarishga muhtojdir. Ana shu vazifani ota-ona oʻz boʻyniga oladi. “Otalik shartini bajo keltirgʻilki ... adab-hunar va donishni farzandingga oʻzingdan meros qilgʻil, toki uning haqqin bajo kelturmush boʻlgʻaysan”¹¹. Koʻrinib turibdiki, Kaykovus yaxshi odob-axloqli, kasb-hunarli va ahli-donish

¹¹ Кайковус. “Қобуснома”, Т., “Мерос”, 1992 йил, 176-бет.

qilib farzandlarni tarbiyalashni ota-onaning burchi deb biladi. Bu fazilatlar ulardan qoladigan meros bo'lish bilan birga, farzandlarni haqqi ham deb ota-onalarning tarbiyachilik mas'uliyatini ko'rsatib beradi.

“Qobusnoma” ota-onalarning qator vazifalari sanab o'tiladi. Ular quyidagilardan iborat: 1) Bolaga yaxshi ot qo'ymoq; 2) Oqil va mehribon yenagaga topshirish; 3) To'y-tamosha qilib, sunnat to'y o'tkazish; 4) O'qish-yozishni o'rgatib, kasb-hunar va ilmi qilib; 5) Harbiylar ahtdan bo'lsa, sipohiylikni o'rgatish.

E'tiborli joyi ana shundaki, Kaykovus bolaga hunar o'rgatganda, uning uchun boshqalar qilishi mumkin bo'lmaydigan hunarlar o'rgatishi lozim deydi. Ana shunday hunarlar yordamida u mushkul vaziyatlardan chiqa olsin. Shunda bola ham otadan rozi bo'ladi.

Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni olib borish lozimligini ta'kidlaydi; “Yosh bola ilm bilan adabni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimlarning tayog'i bilan qo'rqitg'il. Bolalarga muallimlar adob bersinlar, toki sendan o'g'lingni ko'nglida gina qolmasin”¹².

Kaykovusning “Qobusnoma” asari Sharq pedagogikasining durdonalaridan hisoblanadi. Uni qanchadan qancha avlodlarimiz qunt bilan o'qib o'rganganlar. Bu asar bugungi kunda ham ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida yosh avlodni ma'naviy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy merosida ham munosib o'rinni egallaydi. U o'zining qator asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari umuminsoniy g'oya ekanligini o'rta surdi. Uning fikricha, jamiyatning yetukligi, uning taqdiri va kelajagi yoshlar kamoloti bilan bog'liqdir, shunga ko'ra bola tarbiyasi ota-onalar oldida turgan olijanob vazifadir, deydi.

Olim bo'lish oson, Odam bo'lish qiyin.

¹² Сафо Очил тахрири остида. “Ўзбек педагогикаси антологияси”. –Т, “Ўзбекистон”, 1995, 238-б

Alisher Navoiy ota-onalarning yaxshi sifatlarini ulug'laydi. Bunday sifatlarning ularda jamuljam bo'lishi bola tarbiyasida muhim rol o'ynashini ko'rsatib o'tadi. Masalan, uning xotinlar haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir: "Yaxshi xotin, deydi Navoiy – oilaning davlati va baxti. Uning oroyishi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. G'husnli bo'lsa – ko'ngil ozig'i, xushmuomala bo'lsa jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib intizom bo'ladi ... U beandisha, shallaqi bo'lsa, ko'ngil undan ozor chekadi, yomonlik axtaruvchi bo'lsa, undan ruh azoblanadi. Agar mayxo'r bo'lsa, uy obodligi yo'qoladi, aqlsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi"¹³.

Alisher Navoiy oiladagi ayrim illatlarni va o'zaro kelishmovchiliklarni bola tarbiyasiga salbiy ta'siri va uning buzulishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar haqida ham yozadi. Shuningdek, yaxshi va yomon xulqlar va ularning kelib chiqish sabablarini ko'rsatib beradi. Bolada paydo bo'ladigan yomon xulqlarni oldi olinmasa, u bora-bora illatga aylanadi. Bu o'rinda uning mashhur baytini keltirmoq kifoyadir.

Kuchuk bilan xo'tikni qancha qilsang tarbiya,
It bo'lur, yeshak bo'lur, bo'lmasalar aslo odami.

Alisher Navoiy ta'kidlashicha, ota-onani hurmat qilish farzandlar "... uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmaing qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, uning boshi uchun butun jismingni sadqa qilsang arziydi. Ikki dunyong obod bo'lishini istachang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kunga nur berib turgan birisini oy, birinsini quyosh bil, ular chizgan chiziqdan tashqariga birqadam ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, "adab" so'zidagi "dol" kabi qomatingni ham qil"¹⁴.

Ma'naviy-axloqiy sifatlar mohiyatini yorqin ifodalab bera olgan mashhur "Turkiy guliston yohud axloq" asarining muallifi adib Adulla Avloniy 1878 yilning 12 iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida dunyoga keldi.

¹³ А.Навоий. "Махбуб-ул кулуб", -Т., Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат наш. 1983 й, 41-бет.

¹⁴ А.Навоий. "Ҳарайт-ул аброр", -Т, 1989 й, 55-бет.

Abdulla Avloniy odamlarni xulq xatti-harakat nuqtai nazaridan ikki guruhga bo'ladi: biri yaxshi xulqli kishilar, ikkinchisi yomon xulqli kishilardir. U bunday deydi: Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo'lmishlar: agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikka tavsiya bo'lib, "yaxshi xulq" agar tarbiyasiz o'sib, yomon ishlaydurgan bo'lib kesa, yomonligiga tavsiya bo'lib, "yomon xulq atalur".

Abdulla Avloniyning insonning fayonat, nazofat, sa'i va g'ayrat, riyozat, shijoat, qanoat, ilm, sabr xilm, intizom, miqyosi nafs, fijdon, vatanni sevmiq, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zano hizilizon, iqtisod, viqor, xavf va rato, itoat, haqshunoslik, hayrihohlik, munislik, sadoqat, adolat, muhabbat, oliyhimmat, avf kabi ijobiy xususiyatlarning hammasini "yaxshi xulqlar" sarlavhasi ostida beradi. G'azab, shahvat, jaholat, razolat, saxovat, hamoqat, adolat, xasosat, raxvat, anoniyat, adovat, namimat, g'iybat, haqorat, tibonat, hasad, nizb, nifoq, ta'ma-zulm bularning hammasini muallif "yomon xulqlar" sarlavhasi ostida beradi. Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasiga alohida e'tibor beradi va tarbiyaning rolini to'g'ri aniqlaydi. "Agar bir kishi yoshligidan nafs buzilib, tarbiyasiz bo'lib o'sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmak yerdan turib yulduzlarga qo'l uzutaman abidur"¹⁵, - deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy hislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofdagi kishilar katta ahamiyatga ega. Haqiqiy insoniy axloqni o'zida barqaror qilgan yaxshi kishilar yoshlarga yaxshi ta'sir ko'rsatadi va ularning mehr-shafqqatli, sofdil va maqbul bo'lib tarbiyalanishi uchun zamin hozirlaydi.

"Turkiy guliston yoxud axloq" asari barcha pedagog va ruhshunoslar uchun qo'llanma sifatida foydalanuvchi asar bo'lib qoldi. Asarda insonlarni "yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm" - axloq haqida fikr yuritiladi. Axloq bu xulqlar majmuidir. Xulq esa yezgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo'lish shakli. Binobarin, har bir xulq yezgulik va oliyjanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular

¹⁵ А.Авлоний. "Туркий гулистон ёхуд ахлоқ". –Т., "Ўқитувчи" нашриёти, 1997 й, 11-57.

yaxshi va yomonga bo'linadilar. Lekin bular har bir insonda o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, shakllanmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak deb ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniy shaxsning ma'naviy axloqiy rivojlanganlik darajasini aniqlash borasidagi fikr mulohazalari ham diqqatga sazovordir. U "... so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurg'on tarozisidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilurlar..."¹⁶.

Abdulla Avloniy ko'plab ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'z asarlarida ta'riflaydi. Jumladan, "haqqoniyat deb ishda to'g'rilik, so'zda rostlikni aytilur. Inson bo'stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo'li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o'lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning akasi haqqoniyatdur..."

"Hayo deb ishda, so'zda odobni rioya qilmakka aytilur. Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdurki, inson har vaqt shul ma'naviy nurning ziyosiga muhtojdir. Shariat buyurmagan, odamlar suymagan ishlarni ishlamoq g'iybat, hajv, masxara, safsata, so'puv kabi odamlarning nafsiga, iffatiga tegadurgan odobsiz so'zlarni so'zlamak zo'r odobsizlikdir. Iffatning pardasi, vijdonning niqobili, hayodir".

"Hayrihohlik deb nima ila bo'lsa bo'lsin bir-birimizga foyda yetkurmakni aytilur. Hayrihohlik bir-birimizga qarshi intiladurgan bir vazifayi insoniyatdurki, kishi o'z nafsiga loyiq ko'rmagan bir ishni boshqa bir musulmon qarindoshiga munosib ko'rmasdan yegri yo'llardan, yomon ishlardan kuch etganicha qaytarmoq va yordam qilmoq lozimdur. Janobi haq insonlarni birini digarining yordamiga muhtoj qilub yaratmishdir..."¹⁷.

XX asr o'zbek milliy tafakkuri taraqqiyotida alohida mavqyeiga ega bo'lgan mutafakkir, ma'rifatchi olim va jurnalist Abdurauf Abdurahm o'g'li Fitrat 1886 yilda Buxoro shahrida tug'ilgan.

¹⁶ А.Авлоний. "Туркий гулистон ёхуд ахлоқ". –Т., "Ўқитувчи" нашриёти, 1997 й, 33-34

¹⁷ А.Авлоний. "Туркий гулистон ёхуд ахлоқ". –Т., "Ўқитувчи" нашриёти, 1997 й, 36-37 бетлар.

Abdurauf Fitrat “Sayha” she’lar to’plami, “Munozara”, “Hind sayyohi qissasi” kabi asarlar muallifidir. Abdurauf Fitrat “oila yoki oila boshqarish tartiblari” asari pedagogika sohasida katta nufuzga ega bo’lgan asarlardan biri hisoblanadi. U mazkur asarida oila qurish zaruratidan tortib, oila a’zolarining o’zaro munosabatlari, ota-ona, farzandlarning huquq va burchlari, hatto go’daklarni tarbiyalash va unda yosh onalarning o’zini qanday tutish kerakligi haqidagi masalalargacha chuqur yoritib bergan. Ijtimoiy omil sifatida oilaning jamiyatdagi o’rni bolalarning ijtimoiy, axloqiy va mehnat tarbiyasiga alohida e’tibor berilgan. Shu bilan birga sog’lom ma’rifatli oila va u voyaga tekazadigan har tomonlama yetuk avlodning shu millat va mamlakat iqtisodiy-siyosiy rivojining, shu yurt shonu-shuhrati, qudratining poydevori, abadul-abad mavjudligining muhim shartlaridan ekanligini ta’kidlagan.

Abdurauf Fitratning fikricha, farzandini to’laqonli kamol toptirib, o’stirish uchun unga jismoniy, aqliy va ma’naviy tarbiyadan iborat ko’p tartibli tarbiya berish muhimdir. Fitrat bolaning ruhiyati, ota-ona va farzand ruhiyatlarining nisbatan va o’zaro bog’lanish masalasiga katta e’tibor berar ekan, u bizning hozirgi tushunchamizdan iste’dodli ruhshunos-pedagog sifatida ham ko’rinadi. “odamning fe’l va harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhni tarbiyalash lozim”, - deb yozadi u. “Bolalarni o’ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o’z qadr qimmatini, sha’nini hurmat qilish rayin tarbiya qilmolikni, sizning bilan birga yon atrofdagi odamlar bilan hisoblashishni o’rgatmoq kerak... Bolalarni shunday tarbiya etish lozimki, baxtga bo’lgan intilishlari hech qachon xazon bo’lmasin... Ota-ona bolaga mamnunlik va xursandchilik qilishni man yetmasliklari, balki axloqqa zid bo’lmagan ishlar bilan mamnun va xursand bo’lishini qo’llab-quvvatlashi kerak”,¹⁸ - deydi.

Abdurauf Fitrat axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratadi hamda axloqiy tarbiyaga quyidagicha ta’rif beradi.

¹⁸ Фитрат. “Оила ёки оилани бошқариш тартиблари”. –Т, 1993, 5-6 бетлар.

Axloqiy tarbiya – odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, ya’ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe’li va amali o’ziga ham, boshqalarga ham foydasi va manfaat keltiradigan bo’lsin.

Boshqacha aytganda, odamning fe’lu huyi va harakati yaxshi fazilatlarni tarbiyalash demakdir.

Abdurauf Fitrat insonlar tomonidan sodir bo’ladigan amal va harakatlarni ikkiga bo’lib ixtiyoriy va g’ayri ixtiyoriy deb ajratgan. Hamda, ixtiyoriy amal va hatti harakatlarning shuningdek g’ayri ixtiyoriy amal va hatti harakatlar ruhimizning besh holati tasavvur, muhokama, solishtirish va ijro natijasi ekanligi tahlil qilib beradi. Shuningdek u g’ayri ixtiyoriy xatti-harakatlar (buzg’unchilik sifatlar)da ham ixtiyoriylik mavjud ekanligini isbotlab, bunday holatlar mayllarning (hissiyotning aqldan ustun turishi) oqibati ta’siri deb izohlaydi. Shuning uchun u axloqiy tarbiya orqali shaxs mayl va istaklari tarbiyalanadi, deb ta’kidlaydi.

Abdurauf Fitrat odam ruhining mayllarini uch qismga bo’ladi: shaxsiy mayl, ijtimoiy mayl va oliy mayl. Shaxsiy mayllarning ham uch qismga: baxt mayli, faoliyat mayli va izzat mayllariga bo’ladi va ularni izohlab beradi.

1. Baxt mayli deb – kishilarning o’zlari bilan bog’liqliklarda, u bajargan ishlaridan, mamnunlik, xursandchilik, baxtiyorlik hissiyotlarini boshdan kechirishidan iborat istakka aytiladi. O’ziga taalluqli bo’lgan ishlar natijasidagi g’amginlik esa alam deyiladi. Fitrat aytadiki “... Bolalarni shunday tarbiya etish lozimki, baxtga bo’lgan intilishlari hech qachon xazon bo’lmasin, so’nmasin, balki ko’karsin. Ota-ona bolaga mamnunlik va xursandlik qilishni man yetmasliklari, balki axloqqa zid bo’lmagan ishlarni qo’llab quvvatlashlari kerak, bolalardan biror yaxshi ish sodir bo’lsa, uni maqtashlari, maktab mukofot berishlari yaxshi. Farzand ham ishning natijasini ko’rib shunday baxtli va mamnunlik ishlarini orzu qiladi. Agarda farzand yomon ish qilsa, shu qilmishning qabohati va alamini unga tushuntirish lozim, toki u, bu ishdan nafratlanib o’zini keyingi safar tiysin”¹⁹.

¹⁹ Фитрат. “Оила ёки оилани бошқариш тартиблари”. –Т, 1993, 86-89 бетлар.

2. Faoliyat mayli deb – shaxsning harakat qilish (motorika istagi), faoliyat bilan shug'ullanish istagiga aytiladi. Fitrat “bu istak bolalarda tavallud topganlaridan paydo bo'ladi. Go'dak shu chog'dan harakat va faoliyat orzusida bo'ladi. Qo'l oyoq silkitadi, “meni ko'targin” deb otasining yelkasiga o'zini tashlaydi. Yurib ketganidan so'ng xursand bo'lib to'rt tomonga yuguradi, umuman tinchimaydi. Agarda shu istakka qarshi chiqib, uni “qimirlamay o'tirishga” o'rgasangiz katta bo'lib xafsalasiz, ish bilmas bo'lib” voyaga etadi.

3. Izzat-nafs mayli deb – shaxsning aforiteti va o'z manfaatini himoya qilishdan iborat istakka aytiladi. Fitrat “Izzat nafsni so'ndirmay uni rivojlantirish kerak. Kimda shu nafs bo'lmasa, ya'ni o'z manfaatini o'ylamas, o'ziga ishonmaydi, izzat-nafsining talabida bo'lmaydi. Bolalarga “axmoq”, “eshak”, “juvonmarg”, “o'ldiraman seni”, “senga gapirishni kim qo'yibdi?” deb qarg'ish, izzat nafsiga tegib, uni yo'q qiladi. Go'dak shunday tahqir ko'rib, yaxshi-yomon odamlar oldida haqorat yeshitib, o'ziga mehr va ishonchini yo'qotadi. Nafsoniyati xor bo'lib, beizzat va e'tiborsiz bo'lib qoladi. Bunday odamlarni axloq ulamolari “eshak halimligi egalari” deb atab, ulardan g'ayrat, or-nomus, hamiyat kutmaydilar”, deydi.

Ijtimoiy mayllarni ham Fitrat uch xil: aloqa mayli, o'zgalarga nisbatan mehr-muhabbat mayli va ibrat olib e'tiborda bo'lish mayllariga bo'ladi.

4. Aloqa mayli deb – shaxsning atrofidagi shaxslar bilan bo'ladigan sheriklik va hamdardlik singari munosabatlaridan ta'sirlanish istagi holatiga aytiladi. “Shafqat, marhamat, ko'ngil ovlash, tasalli berish. Birovning dodiga etish shu mayl natijasidir”. Buning ustiga kimning shu mayli kuchayib borsa, uning atvori va fe'li boshqalarga og'ir botmasa, unga ta'na qilmasalar, u doimo yaxshi ishlarga qo'l uradi. Bolalarga ma'lumlar, hech kim yo'q bechora va bevalar ahvolini, ularga yordam berish fikrini bolalar ongiga singdirish foydalidir. Bola atrofdagilar ahvolidan achinib, g'amgin bo'lsa-yu, unga esa “senga nima?” “o'zingni o'yla” deyish undagi aloqaga bo'lgan mayl, intilishlarga zarba berish demakdir.

5. Boshqalarga mehr muhabbat mayli – deb shaxslar munosabatlarda ijobiy ta'sirlanish oqibati tarkib topadigan istakka aytiladi. U boshqa bo'lgan mehr-muhabbat hisida o'z ifodasini topadi. Abdurauf Fitratning qarashlariga ko'ra oiladagi sog'lom muhitning bo'lishi bu maylning rivojlanishi uchun zamin hozirlaydi.

6. Ibrat olib e'tiborda bo'lish mayli – deb shaxsning ideali hisoblangan insonlardan namuna ibrat olib ulardek sa'yi-harakatlar qilish o'zini ularga tenglashtirish istagiga aytiladi.

Fitrat bu borada hali o'zining original fikrlarini bildirib o'tadi. Uning fikriga ko'ra biz milliy axloqiy sifatlarning mukammal sohibi sanalgan ajdodlarimiz hayti va faoliyatini illyustrasiyalar orqali bola ongiga singdirishimiz lozim. Shuning bilan birga o'z xatti-harakat va qiladigan ishlarimizga e'tiborli bo'lishimiz kerak.

Abdurauf Fitrat oliy mayllarni ham uch xilga bo'ladi: bilish mayli, go'zallikka intilish mayli, fazilatga muhabbat mayli.

7. Bilish mayli deb – shaxsning olam sir-sinoatini bilish ulardan xabardor bo'lish, haqiqatni bilish istagiga aytiladi. Odam doimo noma'lum narsalarni bilib olish uchun sa'y-harakat qiladi, ya'ni noaniqlikni aniqlashga qiziqadi va urinadi.

Fitrat bilish maylini izohlar ekan, bu mayl rivojlanish lozim. Lekin bu mayl ba'zilar gap terish va sir asrorni bilishda ko'rinadi va bunday odamlar xalq ichida gap poylab yuradilar. Xabardor bo'lishning bu yo'li juda zararlidir. Ammo ba'zi odamlarda bu mayl haqiqat norasmlilik va va ilm istagi shaklida paydo bo'ladi va ularni har bir narsaning haqiqatini bilishga undaydi. Xabardor bo'lishning bu qismini “haqiqat sevarlik” va “ilm sevarlik” deydilar. Ota-ona bolaning shu maylidan xabardor bo'lishlari shart. Agarda bola gap tashisa, uning zararini tushintirib, man etishlari zarur. Bu mayl haqiqatni bilmoq, ilm olmoq shaklida paydo bo'lsa, tahsin va maqtovlar bilan shu istakni rivojlantirsinlar. (9.89-90)

8. Go'zallik mayli deb – shaxsning voqeylikka nisbatan intizom, tozalik, nafosat talablari asosida (intilishiga) istagiga aytiladi. Har bir shaxs tarbiya, intizom va tozalikka intiladi. Bu maylga kuch berish bolanng paroishonxotirligini yo'q qiladi, iflos yurishdan va intizomsizlikdan qutqaradi. Shu mayl rivojlangan bola ulg'aygandan so'ng zimmasiga tushingan ishni yaxshi bajarib tartibsiz va chala qoldirmaydi.

9. Fazilatga mayli deb – salbiylardan nafratlanish istagiga aytiladi. Fazilatga muhabbat mayli shaxsning kishilar faoliyat ishlarini to'g'ri baholab munosib faoliyat qilish istagidir.

Boshqacha qilib ifodalaydigan bo'lsak, kishining kishilar ishini muhokama qilib yaxshilarga taqlid qilishi, xayrihohlik bilan yondashuvi, yomonlardan nafratlanishidan iborat istakka fazilatga muhabbat deyiladi. Fitrat “Odam boshqalarning ishini yaxshi-yomonga” ajratib yaxshisiga taqlid, yomonidan nafrat qiladi. Shu holatni “Fazilatga muhabbat” deydilar. Bolalar oldida odamlarning ishlarini yaxshi yoki yomonga ajratish, yaxshi ishlarning foydalarini tushuntirishning yomon ishlarning zararlarini fazilat muhabbatiga kuch quvvat beradi.

Abdurauf Fitratning asarlarini o'rganib chiqib, u shaxsni ma'naviy axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash uchun shaxsning irodaviy mayllarini maqsadga muvofiq tarbiyalash lozim degan xulosaga kelamiz.

Shunday qilib, mazkur paragrafda buyuk allomalarning hayoti, ijodi va ular qoldirgan bebaho madaniy, ma'rifiy merosi yosh avlod uchun ibrat va namuna ekanligi, ularning ta'lim-tarbiyaga oid ma'rifiy ta'limotlari yoshlarni Ona-Vatanga, millatga sadoqat va hurmat ruhida tarbiyalashda, ularni iymon, ye'tiqodli, mehr-oqibatli, insof va diyonatli, odob-axloqli, oqil va odil inson qilib tarbiyalashda, o'zligini anglashda benazir ma'naviy qadriyatlar (darajasiga ko'tarish asosiy) ekanligini asoslashga harakat qildik.

1.3. Oilada ma'naviy - axloqiy munosabatlarni negizi va mazmuni.

Oila insonlarning tabiiy – biologik – fizalogik, moddiy – iqtisodiy, huquqiy – qonuniy, ma'naviy – axloqiy, aloqa – munosabatlari asosiga qurilgan ijtimoiy birlikdan iboratdir. Insonlarning tabiiy –biologik – fizologik munosabati deganda jinsiy aloqa va nasl qoldirish (farzand tug'dirish va tarbiyalashni), moddiy – iqtisodiy munosabatida - uy ro'zgorini boshqarish, mulkiy munosabat – nikoxining qonuniyligini, ma'naviy – axloqiy munosabatda esa er – xotin inoqligi, pokligi, ota – ona bilan farzand o'rtasidagi mehr – oqibat, hurmat, burch va shu kabilarni tushunish lozim. Hozirgi kunda yuqoridagi zikir etilgan oila va uning bilan bevosita bog'liq masalalar qonun yo'li bilan muhofaza qilingan va kafolatlangan. Chunki u jamiyatning ajralmas bir bo'lagidir. Shuning uchun ham O'zbekistonda Respublikasining 63 – moddasida; “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lishi huquqiga ega” - deydilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov va hukumatimiz oila jamiyat negizi sifatida bilib, unga nisbatan g'amxo'rlik qilmoqda, uning moddiy maishiy ravnaqi uchun butun imkoniyatlarni ishga solmoqda. Jumladan, yurtboshimiz oilaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati to'g'risida shunday deydi; “Bola tug'ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyalar urf - odatlar bola zuvolasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktab orqali jamiyat talablarini anglaydi his etadi. Bu o'rinda ilgari surulayotgan pedagogik g'oyani tub moxiyatini oila tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish mustaxkamlash va yanada chuqurlashrish bilan bog'liqdir.

I A Karimov «Barkomol avlod orzusi “ .»SHarq “ nashriyoti –matbuot kontseni 1999. 8 –b.

Oila tarbiyasi deganda ota - ona, oiladagi katta kishilar, buva va buvilar , aka -opalar va shu kabilar tomonidan bolalarning to'g'ri , milliy axloq-odob no'rmalari asosida tarbiyalanish tushunish lozim. Zotan kelajakda qanday inson bo'lib yetilishini ota-ona, aka-opa, boshqalarni muomula –

munasabatlar, xulq atvoriga ,tartib –intizomiga bevosita bog'liqdir. Xalqimiz: :Qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bejiz aytmagan.

Oilada axloqiy tarbiyani negiziga asoslanadi. U bolada shakllanish lozim bo'lgan barcha insoniy munosabat va fazilatlarni tarbiyalovchi hayot maktabi hisoblanadi.

O'zbek xalqi tabiatan bolajon xalq. Bolaga bag'ri kenglik, mehrdar yolik, o'ta fidoyilik o'zbeklargagina xos xususiyatidir. Shu boisdan ham, ota – onamiz farzandlarning baxti va kelajagi uchun qayg'uradi. Ularning puxta bilim olishlari qiziqishlari bo'yicha kasb – hunar egallashlari, axloq – odob qoidalarini mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari uchun mavjud imkoniyatlarni yaratadilar. Chunki oilada bolani to'g'ri tarbiyalash mustahkam poydevorli jamiyat barpo etishning garovidir.

Oilada bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini uning ongini, axloqiy hislatlarini, shaxsiy sifatlari va xulqi tarbiyalash va rivojlantirishni taqoza eyadi. Axloqiy tarbiyaning vazifalari asosan quydagilardir;

1. Bolalarda axloqiy his – tuyg'ularni, tassavvurlar va xatti – harakatlarni tarbiyalash.
2. Xulq madaniyati va ijodiy munosabatlarni tarbiyalash.
3. SHaxsda axloqiy his – tuyg'ularni tarbiyalash .
4. 4.Xulqdagi salbiy hislatlarni barxam toptirish.

Oilada amalga oshirilgan axloqiy tarbiyaning mazmuni farzandda o'z ota – onasidan, oilasi, avlod – ajdodlari tarixidan, o'zi tug'ulib o'sgan o'lkasi, vatani, millati, tili, dini, an'analardan g'ururlanishi hissini shakllantirishdan iborat.

Davlatimiz va hukumatimizning ota – ona va tarbiyachi murabbiylar oldiga qo'yayotgan talabi ham aynan shundan ibratdir.

“Bola ongi yoshlikdan boshlab” , “Sen tarixi boy, ulug' millatning farzandisan”, “Sen ulug' mutafakkirlar, alloma zamonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalangan bobokolanlarning ajdodisan”, “O'zbek xalqi boy ma'naviyatli,

vatanga, xalqa sadoqatli xalq”, “Bizning mamlakatda dunyoda tabiati eng go’zal, boy diyor”, “O’zbek xalqi bag’ri keng , insonpavar, mexmondo’st xalq” kabi tushunchalar bilan shakllantirilsa, uning ongida milliy g’urur, o’zligini anglash paydo bo’lib boradi. Shundagina u o’z avlod ajdodlari an’analari kelgusida davomchisi ekanligini , ongli ravishda tushunib yetdi. Mamlakat, oila tug’ulib o’sgan hudud ravnaqi, amalga oshirayotgan islohatlarning muvaffaqiyoti har bir shaxsning ma’naviy madaniyatligi darajasiga, uning fidokorligiga, halol mehnatiga bog’liq ekanligini qalb anglaydi.

Yoshlarning ma’naviy – axloqiy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalash davlatimi- zning siyosatini ustuvor yo’nalishi hisoblanadi.

Oila esa tarbiyaning poydevori o’ziga xos jarayon bo’lib, u farzand tug’ulmasdan ancha oldin boshlanadi. Yaniy bo’lajak ota – onanig salomatligi , nasl – nasabi, dunyoqarashi, ichki va tashqi dunyosi, axloq – odobi, moddiy va ma’naviy va jismoniy tayyorligi kelajak farzand tarbiyasida mumkin ahamiyatga egadir.

Milliy g’urur ona suti, ota namunasi, avlod – ajdotlarining irsiy fazilatlari, axloq – odabi mezonlari orqali far-zand ongiga singdiriladi. Milliy g’ururi O.Musurmonova “Oila ma’naviyati–milliy g’urur”.T. “O’qituvchi”.1999.25 – bet. baland yoshlar mamlakatimizning kelajagidir. Shuning uchun har bir fuqoradan, yosh avlodga milliy g’ururni shakllanish, mustahkamlash bugumgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Milliy g’ururni shakllantirish va mustahkamlash uchun avvalo, millatimizning paydo bo’lib shakllanish tarixi, urf – odatlari, an’analari, adabiyoti, sa’nati, madaniyati, dini va ularning insoniyat tarixi taraqqiyotida tutgan o’rni mukamal bilmoq zarur. Ikkinchidan umuminsoniy qadriyatlarni bilishi, ulardagi milliy mentalitetimizga mos ilg’or g’oyalarni amaliyotga joriy etishga va shu asosda milliy qadriyatlarimizni mazmunan va shaklan boyitmoq lozim. Uchunchidan, jahon andozalariga mos yangi texnika va texnologiya asaslangan ichlab chiqarish jarayonini tashkil etish

va unda foallik ko'rsatish kerak. To'rtinchidan, mamlakatimizda istiqomat qiloyotgan fuqoralarning irqi, millati, naslu – nasabi, tili va diniy etiqotidan qat'iy nazar millatlararo, fuqorolararo totuvlik, hamjihatligi, yakadilliga erishmoq uchun barcha chora tadbirlarni ko'rmoq lozim. Shundagina hech qanday yovuz kuch ko'p millatli mamlakatimizning xalqlari o'rtasiga raxno sololmaydi. Ular bir – birlari bilan do'st – birodar hamfikir, bir –biridan faxrlanish va g'ururlanish hissi bilan yashaydilar. Bunday o'zaro do'stona munosabat yosh avlod tarbiyasida muhim ro'l o'ynaydi.

Axloqiy tarbiyaning yana biri bo'lgan vazifasi insoning jamiyatga bo'lgan munosabatini yuqori pog'onaga ko'tarish. Axloq odob insoning jamiyatga bo'lgan munosabatining negzini tashkil etadi. Axloq odamlarning bir – biriga jamiyatga davlatga, xalq mulkiga, oilaga ishlab shiqarish vositalariga, mehnat mas'ulari va shu kabilarga munosabatini muayyamtartibga soladigan xatti – harakati qoidalari tizimida namoyon bo'ladi.

Odob – odamning jamoat, el – yurt orasida o'zini tutish, boshqalar bilan qay yo's-inda muomila qilish, o'z turmushi, maishati va bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, xulosa, shaxsning kundalik xulq – atvori, yurish – turishi, xatti – harakatlari qanday bo'lishi lozim va ma'qul ekanligini xususida baxs etadi. Oilada bolalarni jamiyatga bo'lgan hurmati yuksaltirish mustaqillimizni mustaxkamlashga, axloqiy madaniyat egasi bo'lishiga, axloqiy ongini, o'zligini - o'zini – o'zi anglab yetishga, yaxshi insonlarga bo'lgan etiqodini rivojlantirishga olib keldi.

Salbiy illatlarning dastlabki belgilari oilada, maktabda ko'rinadi. Buning oldini olish olishi va bartaraf etishi uchun tinimsiz kurash olib borish zarur. Bunday maktab o'quvchilarning ota – onalari o'quvchilarda, o'z farzandlarida samimiylik, tashabbuskorlik, follik, mehnatsevarlik, kabi axloqiy sifatlarni, matonat, tashabbuskorlik, chidam, ishonch kabi xislatlarni shakllantirish shart.

Axloqiy tarbiyaning yana bir vazifasi ongli intizomli bo'lishidir. Ongli intizomli kishining kundalik foliyatida, xulq – atvorda, kishilar bilan

aloqosida, umumiy dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Ongli intizomli egasi bo'lgan kishilar o'z axloqiy burchini to'g'ri anglaydi, o'z xatti – harakatiga boxo beradi, notog'ri xatti – harakatni qoralaydi. Intizomli kishi o'z xulq – atvoriga to'g'ri baxo berish bilan birga, biror xatti – harakat uchun shaxsiy ma'suliyatni his etadi.

Abdulla Avloniy “Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yosholmas edilar” deb ta'kidlaydi.

Bolaning sog'lom bo'lishi uchun atrofida sag'lom, to'g'ri fikirli, go'zal axloqli odamlar bo'lsa, ularning yaxshi fazilatlari bolaning aqlli, axloqli bo'lishiga ta'sir etadi, albatta. O'zoro ittifoqlik, muxabbat bo'lgan har bir oila muruvvatli bir – biriga ma'naviy, madaniy muloqatda bo'lishlari eng ko'rkam xislatdir. Umuman, har bir xalq, jumladan, o'zbek xalqi o'ziga xos axloq qonun – qoidalarni yaratadi. Insoniylik mezoni axloq qonuniyatining mezoni bo'lgan.

Ko'rinib turibdiki, qadamdan ham, bugungi va ertangi kungi ham, bundan keyin ham aqlli, farosatli, taffakuri chuqur bir so'z bilan aytganda kamolatli farzand tarbiyalash muomasi dolizarbdir. Xalq bunday fazilatli insonlarni sevadilar, ezozlaydilar va hurmat qiladilar.

Shunday qilib o'zbek oilasida axloqiy munosabatlarni shakllanirishda o'zbek xalqining munosabatlarni shakllantirishda o'zbek xalqining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib beruvchi milliy urf – odatlarimiz, an'analarimizdan foydalanish hozirgi kunda yangicha mohiyat kasb etadi. Oilada axlodiy munosabatlarni pedagogik asoslarini ochib berishda O'rta Osiyo mutafakkirlarning qarashlari pand - nasixatlari, qimmatli asarlar asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

Biz ushbu bobda oiladagi axloqiy munosabatlarni shakllantirishning nazariy qismini yoritib o'tdik.

Shunday qilib, oila tarbiyasi maskani bo'lib, shaxsning kelajagi shu maskanda tarbiyaning qanday amalga oshirishiga, tarbiyachi hisoblanish ota

– onaning o'z burchi va vazifalariga qanday munosabatda bo'lishiga bo'g'liqdir. Oiladagi har bir kishining o'z burchi vazifalariga masuliyat bilan yondashishlari oila mustax-kamligi, jamiyat farovonligiga erishishning omilidir.

Xullas , barkamol insonni, yani avvalo oila uchun , qolaversa o'zi yashab turgan janiyat, xalq uchun fidoiy shaxsni tarbiyalash oiladan boshlanadi.

II BOB OILADA AXLOQIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY YO'LLARI, VOSITALARI VA SHAKLLARI

2.1 Oilada axloqiy munosabatlarni yo'lga qo'yishda oilaviy an'analar, urf-odat va milliy qadriyatlardan foydalanishning shakllari

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy rivojlanishi barkamol insonni shakllantirish bilan ruyobga chiqariladi. Barkamol, etuk inson asosan o'ta o'qimishli, yangicha fikrlaydigan, madaniyatli, axloq - odobli, mehnatsevar, uquvli, jismonan va ruhan sog'lom, o'z haq - huquqini bilgan, vatanini sevadigan, faol, fidoyi va ma'naviy boy singari insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirmog'i lozim.

Bunday yuksak fazilatlarga ega bo'lgan komil inson asosan oilada tarbiyalanadi. Oilaning bolalarga ko'rsatadigan ta'siri shunchalar kattaki hech qanday boshqa ijtimoiy ta'sirlar buni bera olmaydi. Bu fikrning to'g'riligini Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (1997 yil, 29 avgust) so'zlagan nutqida "...Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf - odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi", - deb o'z fikrini aniq bildirgan edi. Haqiqatan ham bola hayoti oilaviy muhitning ta'sirida tarbiyalanadi. Oilaviy an'analar, qadriyatlar, urf - odatlar bolani kamolotga etkazishda asosiy o'rin tutadi. Eng muhimi farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini his etadi, anglaydi va nihoyat oila va jamiyatga nafi tegadigan etuk inson bo'lib shakllanadi deb xulosa chiqarish mumkin.

Oilaviy an'analarning bola shaxsini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatini anglash uchun eng avvalo an'analarning mohiyati, mazmuni haqida fikr yuritaylik. Oilada yashovchi inson o'z xalqining milliy oilaviy an'analari tarixini, turmush tarzini, madaniyatini, ruhiyatini va ma'naviyatini chuqur bilgandagina, u shu xalqning barkamol, etuk insoni bo'la oladi. Barkamol inson o'z navbatida o'zining oila turmushida o'rgangan g'oya va tajribalarini o'zidan

keyingi avlodga o'rgatishga harakat qiladi. Ana shu o'rgatish oilaviy va ijtimoiy hayotni davom ettirishga asos, negiz bo'ladi. SHuningdek, ulug' ajdodlarimizning oila hayotida qo'lga kiritgan eng qimmatli, foydali an'analar yosh avlodga o'rgatilmay ekan, shu mamlakatning kelajak avlodga beradigan oilaviy tajribalari ham inqirozga yuz tutadi. Oqibatda mazkur millat yo'qolishiga zamin yaraladi.

SHuning uchun o'z qadr - qimmatini bilgan xalq o'z madaniyatining, ma'naviyatining, qadriyatlarining asosi bo'lgan an'analar, urf - odatlar, rasm - rusumlarni avloddan avlodga etkazadi, asraydi hamda ularni davom ettiradi. Ana shundagina xalqning, millatning, davlatning, hayotning davomiyligi ta'minlanadi. Bu haqda buyuk sharq mutafakkiri Abu Rayhon Beruniy "Vaqt pillapoyasi cheksizdir, bir - birining o'rnini egallab boradigan avlodlar zinadan zinagagina ko'tariladilar, xolos. Jamlangan tajribani har bir avlod o'zidan keyin kelayotgan, o'zidan keyin uni taraqqiy ettiradigan va boyitadigan navbatdagi avlodga etkazib beradi", - deb o'rinli ta'kidlagan.

Hozir xalqning milliy an'analari, urf - odatlari, ruhiyati, hayoti va oila turmushi haqida o'quvchi - yoshlarga ilmiy ma'lumot berish dolzarb masala. O'zbek xalqi o'z oilaviy an'analari bilan jahon hamjamiyatida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan eng qadimgi xalqlardan biri sifatida mana shunday bebaho, boy xazinaga ega. Buning uchun o'zbek xalqining oila an'alarini bilishimiz, boyitishimiz, takomillashtirishimiz, saqlashimiz hamda keyingi avlodlarga etkazish har birimizning muqaddas vazifamiz bo'lmog'i darkor. Eng asosiysi oila an'alaridan yosh avlodni tarbiyalashda foydalanishni hozirgi hayotning o'zi talab qilmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturida "YOsh avlodni ma'naviy - ahloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy - tarixiy an'alariga, urf - odatlari hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etaladi"² - deb alohida ta'kidlangan.

² Баркамол авлод - Ўзбекистон таралъиётининг пойдевори. Тошкент., 1997 йил, 55-бет.

Biz tomonimizdan asoslanayotgan, ishlab chiqilayotgan mazkur material oilada o'quvchi - yoshlarni milliy an'analar vositasida tarbiyalashning tarkibiy bir qismi ya'ni yo'nalishini tashkil qiladi. Buning uchun oilada ota - onalarning oila an'analari haqidagi ma'lumotlarini tarkib toptirishdan boshlash darkor. Bu ishni avval an'analarning nimaligi haqida tushuncha berishdan boshlash maqsadga muvofiq.

An'ana - bu jamiyatda ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida barcha sohalarni qamrab olgan, o'z o'rnini topgan, ajdodlardan - avlodga o'tib turadigan, takrorlanadigan oila hayotida qo'llanadigan umumiy tartib, qoidalar va tajribalar yig'indisi deb ta'riflash mumkin.

Oilaviy an'analar esa ijtimoiy, ommaviy hodisa bo'lib, oila hayotining barcha yo'nalishlarini qamrab olgan ya'ni turmush tarzi, mehnat, ahloq - odob, madaniyat, ma'naviyatlarida o'z o'rnini olgan, avloddan avlodga o'tib turadigan, takrorlanadigan, qo'llanadigan oilaviy tartib - qoidalar yig'indisi deb tushunish zarur. Oilaviy an'analarning hayotda tadbqiq qilinish hajmi, ko'lami, doirasi ijtimoiy an'analarga qaraganda nisbatan torroq yo'nalishga ega. SHu nuqtai nazardan yondoshganda oilaviy an'analar davlat miqiyosidagi ta'lim - tarbiya muassasalari, mehnat jamoalari an'analariidan shakli, mohiyati, mazmuni hamda o'ziga xos milliy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

O'zbek xalqining oilaviy an'analari o'ziga xos milliy xususiyatlarga ega. An'analar oilaning turmush tarzini bezab, ifodalab uning qadr - qimmatini yuksaltiradi. Har bir oilaviy an'ana o'z shakli, mazmuni, maqsadi va vazifalarni nazarda tutadi. Oilaviy an'analar o'z milliy mazmuni, shakli, mohiyati hamda xususiyatlari bilan bir - biridan farqlanadi. YOsh avlodning muntazam tizimli uzluksiz, shakllanishida to'g'ridan to'g'ri kuchli tarbiyaviy ta'sir etuvchi milliy tarbiya vositasidir. Oilaviy an'analar xalqning boy axloq - odobi, madaniyati, ma'naviyati ijtimoiy, oilaviy tajribalari bilan uzaro uzviy bog'langan va ularni o'ziga xos tarzda aks ettiradi. O'zbek oilasining oilaviy an'analari, ayniqsa aqliy, axloqiy, mehnat, nafosat, huquq, ekologik yo'nalishlar orqali tarbiyalash asosli ildizlarga ega. Masalan, kattalarga hurmat va kichiklarga mehribon

bo‘lish; salomlashish va ko‘rishish; bemorlardan hol - ahvol so‘rash va oila boshiga kulfat tushganida yordam berish; birinchi maosh olish; birinchi kor; mehmondo‘stlik va hakazo.

Oilada bolalarga singdirilayotgan barcha g‘oya, tajribalar, yangi udumlar, urf - odatlar, ma‘naviy - axloqiy qadriyatlar oilaviy an‘analar orqali o‘tadi hamda ularni barkamol etib shakllantirishga xizmat qiladi. Oilaviy an‘analar maktabning ta‘lim, tarbiya sohasida maktabda o‘quvchilarga bergan bilimlarni hayotga tadbiq etishda yaqindan yordam beradi. Yangi avlod o‘tmish ajdodlarning hayotdagi barcha tajribalarini muayyan darajada oilaviy an‘analar vositasida davom ettiradi. Tarbiya jarayoni ko‘p qirrali bo‘lib aslida keksa avlodlar bilim, tajribalarini, ko‘nikma va odatlarini yosh avlodga berib, uzatib borishdan ham iborat. SHuning uchun oilaviy an‘analar o‘quvchi - yoshlarni tarbiyalashda, oila tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda milliy tarbiya vositasi bo‘lib ijtimoiy tarbiyaga xizmat qiladi. Oilada bolalarni tarbiyalashda oila hayotida to‘planib kelinayotgan milliy an‘analardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish amaliy ahamiyatga ega.

Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimovning “... Tarixiy tajriba, an‘analarning meros bo‘lib o‘tishi - bularning barchasi yangidan yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog‘i lozim”¹, - deb bildirgan fikri bag‘oyat qimmatlidir. Haqiqatan ham, jamiyat ijtimoiy hayotida ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan oila turmushida milliy, tarixiy, mehnat, axloqiy - ma‘naviy tajribalarning yangi avlodga meros bo‘lib an‘analar shaklda o‘tishi o‘quvchi - yoshlarni tarbiyalaydigan milliy vositaga aylanib qolishi tabiiy bir holdir. An‘analarning eng qimmatli jihatlari o‘quvchi - yoshlarni oilaviy va ijtimoiy hayotga tayyorlashda milliy tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qilmog‘i lozim ekanligidir.

Qolaversa, oilaviy an‘analar o‘quvchi - yoshlarni barkamol etib tarbiyalashda xalqning asrdan asrga, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan milliy ma‘naviy - axloqiy qadriyatlariga aylansa, yanada mukammalroq,

¹ Каримов И.А. Буюк келажак чари. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1998 йил.

amaliyroq ahamiyat kasb etadi. Chunki oilaviy qadriyatlar o'zbek xalqi tomonidan qadrlanib, e'zozlanib kelinmoqda va shunday bo'lib qolaveradi. Oilaviy an'analar ma'anviy - axloqiy qadriyatlarga aylangandagina ularning ta'lim - tarbiyaviy qadr qimmati, o'quvchi - yoshlarni shakllantirishdagi amaliy ahamiyati yanada ortadi.

Shuning uchun ham oilaviy an'analar o'quvchi - yoshlarni tarbiyalashda va oilaviy hayotga tayyorlashda tarbiya vositasi bo'lib qolaveradi. Masalan, hashar, salomlashish, mehmondo'stlik, to'y, ko'pkari, keksalarni hurmatlash, kabi yuzlab oilaviy an'analar o'zbek xalqining ma'anaviy - axloqiy qadriyatlariga aylanganini ko'rsatish mumkin.

Oilaviy an'analar ham ijtimoiy an'analar kabi taraqqiyotning doimiy shakldagi o'zgarishlari bilan o'zaro bog'langan. Hayotdagi boshqa hodisa va voqealar kabi oilaviy an'analar ham biri paydo bo'ladi, ikkinchisi rivojlanadi, yana boshqasi esa oila hayoti talablariga javob bermaydi va iste'moldan chiqadi. Bu tabiiy bir qonuniyatdir. Oilaviy an'analarning ko'pchiligi kishilarning oilaviy hayotida sinovlarga dosh berib qo'llanib, mustahkamlanmoqda.

Shu an'analardan oila hayotida odamlar faoliyatiga to'g'ri kelmaydigan jihatlari oila an'analari tarkibidan chiqib borilmoqda. Masalan, oila an'alaridan biri to'y an'anasining avvalgi mazmuni saqlanib, qadrlanib kelingani va aksincha so'nggi yillarda to'ylarning mazmuniga zid dabdababozlik, o'zini ko'z - ko'z qilish, isrofgarchilik, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, raqqosalarning noma'qul hatti - harakatlari kabilarni ta'kidlab ko'rsatish mumkin. Bunday oilaviy an'analarning oilada odamlar hayotiga ko'rsatgan zarari oqibatida mazkur an'analarning turmush talablariga mos bo'lmagan jihatlari iste'moldan chiqarilmoqda. Yoki aksincha, Navro'z an'anasining mustabid yillarida ta'qiqlanishiga qaramasdan uning oila hayotida tadbiq etilishiga ta'sir ko'rsata olmaganini ta'kidlab ko'rsatish mumkin.

Istiqlol sharofati bilan oilaviy an'analarni oila hayotiga qo'llash uchun qulay shart - sharoitlar yuzaga keldi. Mustabid yillarida milliy oilaviy an'analarni oila hayotida qo'llash u yoqda tursin, hatto milliy tarbiya degan

iborani ishlatish mumkin emas edi. Oilaviy an'analardan Navro'z, mehmondo'stlik, hayit, to'y, oilaning boshiga kulfat tushganda hamdard bo'lish, salomlashish, bolalarni itoatli va sodiq etib tarbiyalash singari milliy an'analarning ta'qiqlanishi, kamsitilishiga qaramasdan o'z qadr - qimmatini saqlab qola oldi. Bunday oilaviy an'analari, qadriyatlar bilan har birimiz faxrlanishimiz, g'ururlanishimiz zarur. Bu an'analarni, qadriyatlarni saqlash, boyitish oilaviy tarbiyaviy ishlarning bosh maqsadi bo'lib qolmog'i lozim.

“An'analarni tarbiyalash, ularni saqlash tarbiyaviy ishlarning eng muhim vazifasidir” degan edi mashhur pedagog A.S.Makarenko. Demak, oilaviy an'analarni tarbiyalash, ularni saqlash oiladagi tarbiyaviy ishlarning eng muhim vazifasi bo'lmog'i darkor. Oilaviy an'analarni saqlash va boyitishning ta'lim - tarbiyaviy amaliy ahamiyati haqida Prezidentimiz I.A.Karimov “O'z oilasi, nasl - nasabi bilan faxrlanish vatanparvarlik tuyg'usiga chuqur hamohangdir. Bu eng avvalo, oilaviy an'analarni avaylab saqlash va boyitish, ota - bobolarning muborak nomlariga dog' tushirmaslikka intilish, o'z mehnati, bilimlari bilan nasl - nasab obro'sini mustahkamlash, odamlarning hurmat - ehtiromiga sazovor bo'lish istagidir” va yana “O'z xalqiga, uning an'nanalariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o'z xalqining, millatining butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas”², - deb juda o'rinli ta'kidlagan.

CHindan ham oilada oilaviy an'analarni avaylab saqlash va boyitish, ularga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib shu xalqning, Vatanning, oilaning haqiqiy jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas. Haqiqiy Vatanparvar, oilaparvar inson esa o'z navbatida o'z nasl - nasabi ya'ni ota - bobolarining muborak nomlariga dog' tushirmaslikka, ularga sodiq bo'lishga, o'z bilimi, mehnati bilan ular obro'sini mustahkamlashi orqali odamlarning hurmat - ehtiromiga sazovor bo'lish zarurligi uqtirilayapti. SHuning uchun oilada

² Каримов И.А. Буюк келажак сари. Тошкент, "Ўзбекистон", 1998 йил, 65-66 бетлар.

o'quvchi - yoshlarni oilaviy an'analar ruhida tarbiyalash hozirgi davrning dolzarb masalalaridandir.

Bunday inson eng avvalo o'z oilasiga va uning an'alariga, tili, madaniyatiga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalanishi zarur. Chunki o'z oilasini sevmaydigan inson hech bir millatda, xalqda, davlatda bo'lmasa kerak. Oilada bolalarni an'analar asosida tarbiyalashda ota - onalarning tarbiya haqidagi ma'lumoti asosiy o'rin tutadi. Bizning ota - onalarni pedagogik ma'lumotlarini o'rganish yuzasidan olib borgan ko'p yillik kuzatishlarimiz va suhbatlarimizdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, aksariyat ota - onalar oilada bolalarni milliy an'analar vositasida tarbiyalashning pedagogik ahamiyatini to'la tushunmasliklari ma'lum bo'ldi. Bu muammoni pedagogik jihatdan ilmiy - amaliy hal qilishning yo'li ota - onalarning umumiy va pedagogik madaniyatini oshirishdir. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlashning milliy dasturida "Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirilib boriladi"³, - deb ta'kidlagan.

Bizningcha, ota - onalarning oilaviy an'analar vositasida o'quvchi - yoshlarni tarbiyalashdagi imkoniyatlarini oshirish, takomillashtirish uchun quyidagi ikki yo'nalishda ma'rifiy ishlarni tashkil etish ma'qul. Birinchidan, ota - onalarning oilaviy an'analar bo'yicha pedagogik ma'lumot - madaniyatini oshirish. Ikkinchidan, o'qituvchilar, tarbiyachilar, mahalla faollari, ichki ishlar, hokimiyat xodimlari va boshqa tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchilarning pedagogik madaniyatini oshirish. Bu ma'rifiy ishlarni olib borishni tashkil etishda o'z echimini kutayotgan muammolar ham yo'q emas. Xususan, hozir davlat ta'lim - tarbiya muassasalarida ishlayotgan o'qituvchi, tarbiyachi, madaniyat xodimlari, ichki ishlar, hokimiyat vakillari, mahalla faollarining oilaviy an'analar bo'yicha ma'lumotlari va malakalari hozirgi talab darajasida deb xulosa chiqarish qiyin. SHuning uchun bu muammoni hal etishni keng qamrovli tarbiyaviy ishlardan boshlash maqsadga muvofiq. Yana oliy va o'rta

maxsus o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan yosh malakali mutaxassislar o'quv reja va o'quv dasturlari, davlat ta'lim standartlarida ham oilaviy an'analar, qadriyatlar, ma'naviyatlar bo'yicha mavzular va ularga ajratilgan soatlar hozirgi hayot talabi darajasida emasligini aytish zarur. Ammo istiqlolning keyingi uchinchi, to'rtinchi yillarida oila tarbiyasini yaxshilash bo'yicha 1998 yilni oila yili deb e'lon qilingani, davlat va jamiyat akademiyasida oila tarbiyasini o'rganuvchi bo'limning tashkil qilinishi hamda oila kodeksining qabul qilinishi kabi amaliy tadbirlarning bajarilishi bu sohada ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishga asos bo'lmoqda.

Bizningcha, oilada ota - onalarning oilaviy an'analar bo'yicha ma'rifiy ishlarni quyidagi yo'nalish va shakllarda olib borilsa, hozirgi hayot talablariga uyg'un bo'ladi. Bular: ota - onalar universitetlarida; dorulfununlarida; maktablarda ota - onalar majlislarida; qo'mitalarda; ota - onalar kunlarida; mahallalarda; ilmiy - nazariy konferensiyalarda; suhbatlar, munozaralar, uchrashuvlar ilg'or tajribalarni o'rganish va yoyish, keksa ota - onalarning pand - nasihatleri, faol ota - onalarning mahalla jamoatchiligi oldida chiqishlari, gazeta, jurnal, radio, televidenie eshittirish va ko'rsatuvlari, prokuratura, sud, ichki ishlar xodimlarining tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va hakazo.

Oilada ota - onalar o'z bolalari ongida oilaviy an'analarga qiziqishni tarbiyalash eng muhim masaladir. Buning uchun o'quvchi - yoshlarga an'analar haqida aniq ilmiy ma'lumotlar berilishi lozim. Ma'lumotda oilaviy an'analarning mazmuni, tuzilishi, shakli, maqsadi, vazifalari haqida ularni oila, ijtimoiy hayotida qo'llashning ta'lim - tarbiyaviy, amaliy ahamiyatini o'quvchi - yoshlarga o'rgatish talab etiladi. O'quvchi - yoshlarda, oilaviy an'analarga intilish, xohishni, hurmatni tarbiyalamay shu oilaning haqiqiy oilaparvari bo'lishi mumkin emasligiga ishontirish ota - onalarning muqaddas vazifasidir. Har bir an'ana o'ziga xos mazmunga, tuzilishga, maqsadga qaratilganligi, bular esa inson hayotida qo'llanilishi, takrorlanishi orqali odamlarning ruhiyatiga, kayfiyatiga, his - tuyg'ulariga tushuncha, g'oya, tajribalar shaklida ijobiy ta'sir etadigan majmualar yig'indisi deb izohlash mumkin. Umuman an'analarsiz

inson hayotini, turmush tarzini tasavvur qilish mumkin emasligini o'quvchi - yoshlarga tushuntirish darkor.

Oilaviy an'analar insonga tushuncha, bilim, tajriba, mahorat va ma'naviy - axloqiy xulq - atvorni shakllantirishga sharoit yaratadi. Ota onalarning bolalarga oilaviy an'analarning tarixi, ulug' ajdodlar tomonidan qo'llanib kelinish sabablarini, hozirgi hayotdagi amaliy ahamiyatini tushuntirish hamda oila hayotida qo'llashga o'rgatish, odatlantirish nihoyatda muhim. Ota - onalar tomonidan shunday tarbiyaviy ishlar o'quvchi - yoshlar bilan tashkil qilinganda bolalarda o'z millati, oilasi tarixi, madaniyati, ma'naviyati, o'zligini anglash, milliy g'urur va oilaparvarlik, vatanparvarlik kabi eng zarur insonparvarlik fazilatlari shakllanadi.

Eng muhimi ota - onalar oilaviy an'analarning o'quvchi - yoshlarni, yoshlarni oila va ijtimoiy hayotga tayyorlashdagi ilmiy o'rnini va amaliy ahamiyatini, tajribalarni orttirishdagi, mustahkamlashdagi rolini anglashlari nihoyatda zarur. Masalan, Birinchidan, mehmondo'stlik, keksalarni hurmatlash an'analari to'g'risida o'quvchi - yoshlarga tushuncha, ko'nikma, odat, ma'lumot bilan qurollantirmay turib, ularni oila va ijtimoiy turmushga amaliy tayyorlash mumkin emasligi hamda bu milliy urf - odatlarsiz inson barkamol bo'la olmasligini ota - onalar bilishlari shart. Ikkinchidan, ota - onalarga oilaviy an'analarning tarbiyaviy vazifasini tushuntirishni quyidagi shakl va mazmunda tashkil etsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Ota - onalarga oilaviy an'analarning tarixi, maqsadi, vazifasi, har birining o'ziga xos xususiyatlari, ulug' ajdodlarimiz tomonidan qullanilib kelinish sabablari, turmush tarzi, tili, axloqi, mehnati, madaniyati, ma'naviyati hamda udum, urf - odat kabilarning o'quvchi - yoshlarni tarbiyalashdagi tarbiyaviy imkoniyatlarini pedagogik asoslab ko'rsatishdan iborat. Buning uchun avvalo oilaviy an'analar ajdodlardan - avlodlarga o'tib kelayotgan oilada o'quvchi - yoshlarni tarbiyalashning milliy vositaligiga ota - onalarni ishontirish bag'oyat muhim.

Ota - onalarga oilada an'analarning o'quvchi - yoshlarni oilaviy va ijtimoiy hayotga tayyorlashdagi tarbiyaviy qirralari haqida ma'lumot berishda o'zbek

millati tarixi, turmush tarzi, oilaviy an'nalari, udumi, urf - odati, axloq - odobi, madaniyati ma'naviyati asoslarini bolalarga o'rgatishda ahamiyatini anglatish hamda ular bilan bog'liq milliy mafkura, milliy ong, milliy g'urur, o'zlikni anglash, millatidan faxrlanish va unga sodiq bo'lish, vatanparvarlik kabi insoniylik fazilatlarni shakllantirishda oilaviy an'nalarning tarbiyaviy vazifalarini bajarishga ota - onalarning alohida e'tiborini qaratish zarur.

Bu fazilatlarni oilaviy an'analar vositasida tarbiyalanganligiga ota - onalar ishonch hosil qilishlari darkor. SHundan keyingina oilaviy an'analarning tarbiyaviy vazifasi amalda o'z tadbig'ini topadi. Misol uchun oilada salomlashish va alik olish an'anasini pedagogik tahlil qilaylik. Birinchidan, salomlashish eng avvalo insonning insonligini ko'rsatuvchi belgi, uning ongli bir jonzotligini, boshqa jonzotlardan farqlanishini, insoniyligini his qilish, burchni anglash, o'z ruhini o'zi boshqara olish, boshqalarga insonlarcha munosabatda bo'lish, o'zini hurmatlash o'z qadriga va hurmatiga sazovor bo'lish deb izohlasak to'g'ri bo'ladi. Ikkinchidan, aksincha yuqoridagi axloq - odob qoidalariga amal qilmaslik kishining kayfiyatiga, ruhiyatiga yomon ta'sir etadi. Bunday holat esa odamlarning shug'ullanayotgan faoliyatiga bevosita ta'sir etmay qolmaydi. Har qanday inson o'zi ro'para bo'lgan kishiga salom bermasa yoki salomini olmasa, birinchi navbatda, o'z xayolida nima uchun bunday holat bo'lganligi haqida fikr yuritadi, uylaydi va to'g'ri xulosaga keladi.

Bu holatning salbiy ta'siri uyqudan so'ng unutilishi mumkin. SHuning uchun inson oila va ijtimoiy hayotda oddiy oilaviy an'analarga rioya etishi amaliy ahamiyatga ega deb ota - onalarni ishontirish va uni bajarishga undash darkor. Oilaviy an'analarning bolalarni rivojlanishidagi amaliy vazifasi bundan oldingi ta'limiy va tarbiyaviy vazifalari natijasida hosil bo'ladi. Buni sodda etib oilaviy an'analarning o'quvchi - yoshlarga o'rgatishdagi hamda tarbiyalashdagi vazifalari ya'ni bilimi, ko'nikmalari, odatlari o'quvchi - yoshlarning umumiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, natijada ular barkamol bo'lib har tomonlama etishadi. Bu jarayonni ota - onalarga quyidagicha izohlab berish mumkin.

Bola oilada oilaviy an'analarga amal qilishda oila hayotida zarur bo'ladigan axloq, mehnat, estetik tarbiyalarga doir muomala ko'nikmalari haqida ilmiy ma'lumotga ega bo'ladi. Ana shu ma'lumotga tayanib bola oila va ijtimoiy hayotda axloq, odob, mehnat ko'nikmalarini, insoniy xulq - atvorni shakllantirib, barkamollikka erishadi. Ana shu sifatlar bollarni rivojlanganligini ko'rsatadi. Ana shu jarayonni oilada ota - onalarning bilishlari nihoyatda zarur. Aksincha ota - onalar bu jarayonni tushunib etmasalar, o'quvchi - yoshlar tarbiyasi samaradorligi shunga yarasha bo'ladi. Shuning uchun avvalo ota - onalarning o'zlari oilaviy an'analarning rivojlantiruvchi, amaliy vazifalari haqida chuqur pedagogik ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Demak, insonning barkamolligida ta'lim - tarbiyaning natijasida uning umumiy rivojlanishi ta'minlanadi. Ana shu pedagogik jarayonni anglash oilada ota - onalarning eng muhim burchi vazifasi hisoblanadi. Oilaviy an'analarga qo'yidagilarni misol qilishimiz mumkin: hashar a'anasi, mehmondo'stlik an'anasi, salomlashish va ko'rishish an'anasi, bemorlardan hol - ahvol so'rash va oila boshiga kulfat tushganda yordam berish an'anasi va boshqa an'analardan mavjud.

Masalan hashar an'anasi, hashar sharq xalqlarining xususan o'zbek xalqining eng azaliy insonparvarlik, jamoatchilik asosidagi mehnat an'analardan bo'lib o'zbek xalqi hayotida muhim o'rin tutib kelgan. Hashar bu ko'pchilikning bir yoqadan bosh chiqarib, bir maqsadni amalga oshirishda birgalashib harakat qilishi oqibatida katta mehnat samarasiga erishishdir. Oilada hashar an'anasi mazmuni halqimizning "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar", "Kuch birlikda", "YOlg'iz otning changi chiqsa ham dong'i chiqmas" kabi maqollarida o'z ifodasini topgan.

Yana bir oilaviy an'analardan biri bu mehmon kutish an'anasi-o'zbek oilalarining eng qadimgi insonparvarlik an'analardan biri mehmondo'stlikdir. Qadimgi davrda bir qarashda oddiy mehmon keldi, kutildi, kuzatildi singari soddalashtirilgan, holda kishi ko'z oldida namoyon bo'ladi. Xalqimiz bu borada tarbiyaviy ahamiyatga molik naql yaratgan: "Maktab o'qib

mo'la bo'lasan, mehmon kutib (mehmon bo'lib) odamgarchilikni o'rganasan". Haqiqatan ham, bu naqlda juda katta pir ma'no yashiringan. Odatda har bir xonadonda alohida did bilan bezatilgan mehmonxonasi bo'lgan va hozir shu tarzda davom etayapti. Ilgari har bir hovlida mehmonlar uchun alohida darvozadan to'g'ri kiriladigan mehmonxonaning mavjudligi xalqimizda mehmondo'stlik an'anasining qadimiyligidan darak beradi. Buni XI asrda yashagan sharqning allomasi YUsuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asaridagi: "Agar sen odamlarni taklif qilayin desang, taklif qilgin va lekin taraddudlarni yaxshi ko'rib qo'y. Idish - tovoq, dasturxon, uy-joy, libos pokiza bo'lsin, pokiza ko'rpacha yoygin, ovqat va ichimliklar ham yaxshi bo'lishi kerak. Ovqat ichimliklar pokiza, totli, yaxshi bo'lsin, qo'l uzatgan havas bilan esin. Taklif qilmasang, osh-suvning kamchiliklari bitta bo'ladi, taklif qilsang, uni ko'rgan birni ming qiladi. Uyla sen eb - ichiladigan narsalarni yaxshi, pokiza qilgin, kelgan yaxshilar to'yib turib ketsinlar. Do'stlarni, qarindoshlarni, ular xoh uzoq, xoh yaqin bo'lsinlar, barchasini ziyofatga taklif qil, haqlariga rioya qilgin.

Keladigan keladi, agar kelmasa, uning ko'ngli taklif qilinganligi uchun qolmaydi"¹, - deb bildirgan qimmatli fikrlari ham isbotlaydi.

Hozirgi davrda ham har bir oilada katta, keng, ko'rkam, havodor bir xona maxsus jihozlar bilan bo'sh holda mehmon kutish uchun muljallab saqlash an'anaga, odatga aylangan. Mehmon uchun ohori tukilmagan bir necha ko'rpacha, ko'rpa, bolishlar, idish tovoqlar tayyorlab qo'yiladi.

Salomlashish an'anasi haqida gapiradigan bo'lsak, salomlashish tarixiga nazar solsak, u XI asrda arablarning O'rta Osiyoga kelishi bilan qo'llanila boshlagan. Unga qadar O'rta Osiyo xalqining urug' - ajdodlari hisoblangan turon elatlari: massagetlar, sug'diy va xorazmiy kabi qabila kishilari bir - birlari bilan uchrashganda "Sayli Sohib" deganlar. YA'ni kechirayotgan har bir kunning xursandchilik, tantana, zavqli bayram, namunali sayl bo'lsin singari mazmunlarni bildirgan.

¹ Юсуф Хос Қожиб. Љутадиу билиг. Тошкент, "Фан", 1972 йил, 694-бет.

Insonning barkamolligi, tarbiyalanganligi, ododbliligi salomdan boshlanadi. Salom odamning kimligini ifodalab turishi kerak. SHundagina salom insonlarni ezgulikka etaklayveradi hamda odamning qadr - qimmatini oshiradi va salomlashishga odatlantiradi. SHuning uchun ota - onalar oilada bolalarni salomlashishga o'rgatish sharq xalqlarining eng qadimgi oilaviy an'analaridan biridir.

Oilada ota - onalar bolalarni hatto tili chiqa boshlagan davrdan boshlab salomlashishi va ko'rishishini milliy ruhda o'rgatishi an'anaga aylangan. CHunki salomlashish va alik olish ya'ni "Assalomu alaykum" deb salom berish va "Vaalaykum assalom" tarzda javob qaytarishi o'zbek xalqining ahloq - odob, xulq - atvor qoida normalarining yig'indisi deb izohlash mumkin. Qolaversa, o'zbek xalqi dunyodagi boshqa xalqlardan salomlashishning o'ziga xos xususiyatlari, shakli bilan shu vaqtgacha tanilib, obro' - e'tibor, qadr - qimmat topib jahon hamjamiyatida munosib o'rnini topgan hamda boshqa xalqlardan farqlanadi.

O'zbek xalqining salomlashish an'anasi millatning obro'si, g'ururi, faxri, madaniyati hamda ma'naviyatining bir tarkibiy qismi bo'lgandagina teranroq tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Millatning faxri hamda bolalarni oilada tarbiyalashning milliy ishonchli vositasi bo'lib xizmat qiladi. SHundan keyin bolalarning, yoshlarning salom berish va alik olishga bo'lgan intilishi, qiziqishi, xohishi ortadi.

Oilada ota-onalarning farzandlarga salomlashishi va alik olish mohiyatini anglatishi bag'oyat muhim. Buning uchun ota-onalar avvalo salomlashish haqida ma'lumot berishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbek xalqining eng qadimgi an'analaridan biri bemorlardan hol-ahvol so'rash va oila boshiga kulfat tushganda yordam berish an'anasidir. Oilada uzoq vaqt betob bo'lib qolgan kishilarni, yoshi ulug' yoki yosh bo'lishidan qat'iy nazar hol - ahvol so'rash avloddan avlodga o'tib kelayotgan insonparvarlik an'analaridan biridir. Mazkur an'ana mazmuni axloq - odobga oid hadis namunalarida quyidagicha asoslangan. "Mo'minlarning bir - birlariga oltita

haqlari bor: salom berish, chaqirsa borish, maslahat so‘rasa, berish, aksirsa, javob aytish, kasal bo‘lsa, borib ko‘rish, betobligingda seni ko‘rgani kelmagan odamni sen borib ko‘raver. Senga xayru ehson qilmagan odamga sen xayru ehson qilaver; bemorni ko‘rgani borganda uning peshonasiga qo‘lni qo‘yib hol - ahvol so‘rash barkamol ziyorat hisoblanadi. Qo‘l berib salomlashish mukammal bo‘ladi va hakazo. Haqiqatan ham hadislarining har biri hayotda yashayotgan kishilar oldiga muayyan insoniylik ma’suliyatlarini yuklaydi. Bu mas’uliyatlarsiz har qanday odam etuk, barkamol bo‘la olmaydi. SHuning uchun bolalarni xalqning mazkur an’anasi ruhida tarbiyalash nihoyatda dolzarb masaladir.

Oilada bu an’ana hamma vaqt maktab yoshidagi bolalarning, yoshlarning bevosita ko‘z o‘ngida ya’ni ishtirokida ro‘y beradi. Bolalar bemorni so‘rab kelgan kishining bemorga muomalasi, hol - ahvol so‘raganda ishlatilgan so‘zlar, fikrlar, xatti - harakatlari, ma’nolarini va bemorning javoblari, ovoz ohanglari, so‘rashga kelgan kishiga minnatdorchiligi kabilarni kuzatib boradi. Bularning hammasi o‘quvchida kelajakda hayotda shunday holatga tushganda amal qilishi zarur bo‘lgan tushuncha, tasavvur, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga amaliy yordam beradi.

2.2. Oilalar bilan olib borilgan tadqiqot ishlari va ularning natijalari

Tadqiqot jarayonida biz o'zbek oilalaridagi tarbiya jarayoni, farzand tarbiyasi ota-onaning o'zni, oilalarda axloqiy munosabatlarni shakllanganlik darajasini o'rganish maqsadida Samarqand viloyati Payariq tumani Tomoyrot mahallasi, Tomoyrot qishlog'ida istiqomat qilayotgan oilalar hamda oilalarda yuzaga kelayotgan har xil muammolarni ko'zatib tahlil qilib chiqdik. Mahalla fuqarolar yig'ini raisi hamda mahalla xotin- qizlar maslahatchisi yordamida bir necha oilalarga kirib u yerdagi qo'yidagi voqea va muammolarning guvohi bo'ldik:

“Bola boshidan!”

1- masala. Boymirzayevlar oilasida otasi juda toparman-tutarman. Ota hali balog'atga yetmagan o'glidan pulini ayamas, u bilan gaplashganda faqat boylik, pul topish yollarini o'rgatar ekan. Oiladagi muhitni ko'rish maqsadida shu oila bilan uchrashgani bordik va bizni mehmonxonaga taklif qildi, birdan erkatoiy o'g'li ruxsatsiz, salomsiz kirib kelib qoldi. Xijolat bo'lgan ota o'g'liga: “E, mehmonlarga salom qani, o'g'lim”, -dedi. O'gli: “Mehmonlaringiz o'zingizga o'xshagan boy beznesmenlarmi? 25 so'mlik salom beraymi, 50 so'mlik salom beraymi yoki 100 so'mlikmi?”. Ota bizning oldimizda o'g'lining bunday savollaridan juda uyalib, yer yorilsa-yu, yerga kirib ketgudek izza bo'ldi.

Oila a'zolarining o'g'lining qilgan hurmatsizligiga munosabati:

- A) Dadasi: O'g'lim sen mehmonlarni oldida meni izza qilding. Endi senga hech ham pul bermayman.
- B) Ayasi: Eh, dadasi bolada, bunday demang bola o'rtoqlaridan kam bo'lib yursinmi?
- C) Buvisi: Bolam senga necha bor aytdim, “o'g'lingni pulga ko'p o'rgatma” –deb. Bolam “salom” xudoning farzi. Kishilarga salom berganda hech qachon pul olmaydi, gunoh bo'ladi.

“Qush uyasida ko’rganini qiladi!”

2-masala. Po’latning yolg’iz o’g’ilchasining tili chiqqan- biram shuirinki! Po’lat o’zi bolaligidan sho’x o’sgan, uning ustiga otasiz katta bo’lgan bo’lib, ba’zi mahalla bolalariga qo’shilib tarbiyasi buzildi. Shu sabab uylanganidan keyin ham bosilmadi. Ba’zan xotini bilan san-manga borib qolganda og’zidan bodi kirib shodi chiqar, hech kimni pisand qilmas, birovga quloq solmas edi. Po’latning qo’shnisi ergashvoy bilan kelishmay qolganini va bunga hali tili ham chiqmagan o’g’ilchasining sabab bo’lganini eshitdik. Biz hovlida o’tirgaimizda birdan o’g’ilchasi ko’chada qo’shnilarning bolalaridan biri bilan urishib qoldi. Jazavaga tushgan o’g’li Po’latning qo’y-qo’yiga qaramasdan haligi bolani urar, tili endi chaqqan bo’lishiga qaramasdan oldi-orqasiga qaramasdan so’kar, muomilaga kunmas edi.

Bu voqeani oila a’zolari qo’yidagicha qarshiladilar:

A) Dadasi: yashavor, ota-o’g’il! Boplading o’rtog’ingni. Bo’sh kelma. Bo’shshsang hammadan kaltak yeysan. Zo’r bo’lsang hamma seni hurmat qiladigan bo’ladi. Shunday bo’lsin- katta bo’lsang qaharamon bo’lasan!- dedi.

B) Buvisi: bolam, senga har doim o’g’lingni taltaytiraverma, oqibati yomon bo’ladi, deyman. Boshqalarga ham o’g’il bor, faqat senda emas. Undan keyin sen bolaligingni tashla. Endi o’zin ham farzand katta qilyapsan oxirini o’yla;

C) Oyisi: qo’yavering, oyi. Katta bo’lsa, esi kirib qoladi. Hali yosh-ku, nimani biladi. Ayb qo’shnining o’g’lidan o’tgan-da, bo’lmasa bunaqa qilmas edi – dedi. Bolasi taltayib o’zi qilgan ishidan xo’rsand bo’lib ketdi.

“Baxt mol-dunyoda emas!”

3-masala Rashidovlar oilasida oilaviy muhit qoniqarsiz darajada. Oilada uch farzand. Ikki qiz, bir o’gil. Otasi Rashidov O’tkir ichkilikka berilganligi sabab oilada nosog’lom muhit, har kuni janjal, oilaning moliyaviy ahvoli ham qiyin darajada. Onasi Rashidova Nargiza turmush o’rtog’ining har kungi ahvolidan bezor bo’lgan, farzand tarbiyasiga ham befarq. Oiladan ortmaydi. Oila, ro’zg’or yuki maktab o’quvchisi bo’lgan Jamshidning boshiga tushgan. Oilaning moliyaviy ahvoli yomonligi sababli katta qizi Rashidova Maftunani

hali kollejni birinchi kursidanoq har xil qarshiliklar, mahalla aralashishiga qaramay kichikkina to'y qilib uzatib yuborishdi:

Bu masalaga bildirilgan munosabatlar:

- A) Ota-onasini tutgan yoli to'g'ri bo'lgan, chunki qiz bu oiladagi nosog'lom muhitda, oilaning janjallaridan qutulib ketdi
- B) Mahalla-kuy bilan maslahat qilish kerak edi
- C) Ota-ona farzand tarbiyasiga boshdan e'tibor qaratib oiladagi muhitni to'g'rilashi va farzandini kelajagi uchun uni salomatligi uchun qayg'urishi kerak edi.

Bu masalalar va muommolar yuzasidan 30 ta ota-onalar bilan o'tkazilgan suhbat, savol-javob, test tarzida yig'ilishimizda ota-onalardan qo'yidagi javoblarni oldik:

Masala	A variant	B variant	C variant
1-masala	5	-	25
2-masala	2	26	2
3-masala	5	5	20

Demak tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatib turibdiki. Ota-onalarni ayrimlarini hisobga olmaganda, yetarlicha pedagogic bilimga, axloqiy tushunchalarga, farzand tarbiyasi, oilaviy tarbiya haqidagi tushunchaga ega desak ham bo'ladi.

Bundan tashqari yosh ota-onalar bilan "Farzandim jigarbandim" mavzusida tarbiyaviy tadbir o'tkazdik. Shundan so'ng esa "Siz qanday ota-onasiz?" nomli psixologik testlar olib bordik: ()

1. Bola tarbiyasiga oid ko'rsatuv va eshittirishlarni muntazam ravishda ko'rib borasizmi?
 - a) ha-3 ball;
 - b) ba'zida- 1 ball;
 - c) yo'q – 0 ball.

2. Farzandingiz nojuya ish qilib qo'ysa, bu siz tomoningizdan berilayotgan tarbiyaning kamchiligidan deb o'ylaysizmi?

a) ha – 1 ball;

b) ba'zida – 3 ball;

c) yo'q – 0 ball.

3. Farzandingiz sizga yordamlashmoqchi bo'lsa, ishingiz cho'zilishi yoki umuman to'xtab qolishi mumkinligini bilsangiz ham rozi bo'lasizmi?

a) ha – 1ball;

b) ba'zida – 3 ball;

c) yo'q – 0ball.

4. Taqiq va bo'yruqni haqiqatdan ham zarur paytda qo'llaysizmi?

a) ha – 1 ball;

b) ba'zida – 3 ball;

c) yo'q – 0 ball.

5. Ta'lim-tarbiya bilan muntazam ravishda shug'ullanishni pedagogic tamoyillardan biri deb hisoblaysizmi?

a) ha – 1 ball;

b) ba'zida – 3 ball;

c) yo'q – 0 ball.

6. Farzand tarbiyasiga atrof-muhitning ta'siri kuchli bo'lishi mumkin, deb o'ylaysizmi?

a) ha – 1 ball;

b) ba'zida – 3 ball;

c) yo'q – 0 ball.

7. Jismoniy tarbiya va sport yetakchi rol o'ynashi mumkin, deb o'ylaysizmi?

a) ha – 1 ball;

b) ba'zida – 3 ball;

c) yo'q – 0 ball.

8. Bolangizdan biron narsani bo'yruq bermasdan,iltimos qilib so'ray olasizmi?

a) ha – 1 ball;

b) ba'zida – 3 ball;

c) yo'q – 0 ball.

9. “Hozir vaqtim yo'q” yoki “Ishimni qilib bo'lgunimcha to'xtab tur” deganingizda bolangiz oldida vijdoningiz qiynaladimi?

a) ha – 1 ball;

b) ba'zida – 3 ball;

c) yo'q – 0 ball.

10. Eringiz (xotiningiz) bilan tarbiya uslublaringiz to'g'ri keladimi?

a) ha – 1 ball;

b) ba'zida – 3 ball;

c) yo'q – 0 ball.

Javoblar:

15-30 ball: sizni yaxshi ota-ona deyish mumkin. Siz ota-onalik burchingizni kerakli darajada bajaryapsiz. Bunga farzandingizga beradigan ta'lim-tarbiyadan ham bilsa bo'ladi. Ammo farzandingizning qiziqishlari va qobiliyatlariga ko'proq e'tibor berishingiz kerak.

7-14 ball: farzand tarbiyasida deyarli kamchiliklarga yo'l qo'ymaysiz, lekin ko'pincha boshqa yumushlar tufayli farzandingizga keraklicha e'tibor berolmay qolasiz. Bu kamchilikni to'g'rilash uchun kelayotgan dam olish kunini farzandingizga bag'ishlang. U bilan biror yerga boring. Natijasi ijobiy bo'lishiga shubha qilmasangiz ham bo'ladi.

0-6 ball: farzand tarbiyasi haqida tushunchaga umuman ega emassiz. Hechdan ko'ra kech, deganlaridek bu boradagi bilim va malakangizni oshirishga harakat qiling.

20 nafar yosh ota-onalar bilan olib borilgan psixologik testlar yordamida ularni farzand tarbiyasiga qanchalik ma'suliyat bilan yondoshishlarini aniqlab oldik ham desak bo'ladi. Psixologik testlarning natijasi qo'yidagicha bo'ldi: Agar biz 25 nafar yosh ota-onalarni 100% deb olib qaraydigan bo'lsak ulardan 60 % 0-6 ballni to'pladi, 30% 7-14 ballni to'pladi, 10 % gina 15-30 ballni to'pladi.

Yosh ota-onalarga bola tarbiyasi, ota-onaning farzand oldidagi burchlari kabi tushunchalarni tarkib toptirish va ularda ota-onalik ma'suliyatini yanada oshirish maqsadida "Qush uyasida ko'rganini qiladi", "Bola boshidan" mavzusida tarbiyaviy tadbir o'tkazildi. Tarbiyaviy tadbirda oilalarda axloqiy munosabatlarni shakllanishi, o'zbek oilasiga xos bo'lgan xususiyatlar, milliylik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an'analarning hamda urf-odatlarining bola tarbiyasidagi o'rni ochib berildi.

O'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlar hamda yosh ota-onalarga berilgan pedagogik bilimlardan so'ng o'tkazilgan tajriba ishlarini natijasini bilish maqsadida 15 nafar yosh ota-onalardan psixologik test oldik.

Tajriba boshida olib borgan psixologik testdan farqli o'laroq keyingi olgan test natijalarini hisobga olgan holda yaxshi natijaga erishdik deb aytsak bo'ladi. Olingan test natijalari qo'yidagicha: Agar biz 15 nafar yosh ota-onalarni 100% deb olib qaraydigan bo'lsak ulardan 65 % 15-30 ballni to'pladi, 25% 7-14 ballni to'pladi, 10 % 0-6 ballni to'pladi.

Bundan tashqari Payariq tumani Tomoyrot mahallasi, 2-maktabning 9-sinf o'quvchilari, Tomoyrot qishlog'ida istiqomat qilayotgan oilalar va Tomoyrot mahallasi fuqorolar yig'ini faollari bilan oilalarda, mahallarda axloqiy munosabatlar shakllanganlik darajasini, shakllantirish darajasini o'rganish maqsadida qo'yidagi mazmunda so'rovnoma olib bordik.

Oilada axloqiy munosabatlarni shakllanganlik darajasini o'rganish yuzasidan so'rovnoma(9-sinf o'quvchilari uchun)

1. Siz qanaqa oila farzandisiz (ziyoli, ishchi)?
2. Oila deganda nimani tushunasiz?
3. Sizning oilangiz necha kishidan iborat?
4. Sizning oilangiz jamiyatda qanday o'rinda turishini xoxlaysiz?
5. Siz oilangizni namunalii oila deb hisoblaysizmi?
6. Qadriyat deganda nimani tushunasiz? Fikringizni yozing
7. Sizning oilangizda qadriyatlarga munosabat qanday?
8. Farzand sifatida ota-onangizni barcha aytganlarini so'zsiz bajara olasizmi?

9. Siz o'zingiz ota-onangizga munosib farzand deb hisoblaysizmi?
10. Siz kelajakda oila qurganingizda farzanlaringizni o'zingiz olgan tarbiyaga tayanib tarbiyalaysizmi yoki unga o'zgarishlar kiritasizmi?
11. Biron-bir voqea yuzasidan fikr bildirsangiz, ota-onangiz sizni fikrlaringizni inobatga olganmi?
12. Balog'at yoshi sizda qiyinchiliklar bilan o'tganmi va bunga sabab nima deb o'ylaysiz? Fikringizni yozing
13. Ota-onangiz sizning oldingizda tortishganmi sizning bunga munosabatingiz qanday bo'lgan?
Fikringizni yozing
14. Kelajakda oila qurganingizda qanday oila qurishni xoxlaysiz?
15. Siz oilani mustahkam bo'lishi nimaga bog'liq deb o'ylaysiz?

Oilada axloqiy munosabatlarni shakllantirish darajasini o'rganish yuzasidan so'rovnoma (Mahalla faollari uchun)

1. Siz mahallada qanaqa lavozimda ishlaysiz?
2. Siz o'z kasbingizni sevasizmi?
3. Sizning mahallangiz ibratli mahallalardanmi?
4. Oila kodeksi haqida tushunchaga egamisiz?
5. Sizning mahallangizda nechta oila va nechta yosh oilalar yashaydi.?
6. Mahallangizdagi oilalarda axloqiy munosabatlarga qanday qarashadi?
7. Oilalar bilan qanaqa hamkorlikdagi ishlarni yo'lga qo'ygansiz?
8. Yosh ota-onalar bilan axloqiy munosabatlar, insoniy sifatlar va farzand tarbiyasi haqida suhbatlar olib borganmisiz?
9. Mahallangizda nosog'lom oilalar bormi va ularda tarbiyalanayotgan farzandlar tarbiyasi bilan qiziqqanmisiz?
10. Mahallangizda tarbiyasi og'ir bolalar ham bormi? Ularda oilaviy muhit qanday? Fikringizni yozing.
11. Tarbiyasi og'irlikning sabablarini o'rganib chiqqanmisiz?
12. Mahallada oilalarda axloqiy munosabatlarni shakllantirishga bag'ishlangan tadbir rejalari bormi?

13. Mahallangizda ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarga qanaqa yordam ko'rsatiladi?

Oilada axloqiy munosabatlarni shakllantirish darajasini o'rganish yuzasidan o'rganish yuzasidan so'rovnoma(Ota-onalar uchun)

1. Sizning oilangizdagi mavqeingiz va yoshingiz.
2. Farzandlaringiz soni nechta (o'g'il, qiz)?
3. Siz oilangizni mahalladagi namunali oilalardan deb hisoblaysizmi?
4. Siz farzandlaringizga ota-ona sifatida shaxsiy namuna ko'rsata olasizmi?
5. Mahalla maslahatchilari bilan farzandingizni tarbiyalashda maslahat olib turasizmi?
6. Ma'naviy-axloqiy tarbiya deganda nimani tushunasiz va oilangizda axloqiyn me'yorlarga amal qilasizmi?
7. Oilangizda axloqiy munosabatlarga e'tibor qay darajada? Fikringizni yozing
8. Siz farzandingizga tarbiya berishda uning yosh xususiyatlari va xarakterini hisobga olasizmi?
9. Siz farzandingizni xoxish istagiga qarab ish tutasizmi?
10. Farzandingizga berayotgan tarbiyangiz to'g'ri deb o'ylaysizmi?
11. Farzandingiz bilan ota-ona sifatida sirlashasizmi?
12. Farzandingizni o'smirlik davri sizga qiyinchilik to'g'dirganmi?
13. "Bolaga 5 yoshgacha shohday munosabatda bo'l, 5-12 yoshgacha qo'lday munosabatda bo'l, 12 yoshdan keyin do'stday munosabatda bo'l"-degan iboralarga qanday qaraysiz? Fikringizni yozing
14. Sizning oilangizda qadriyatlarga munosabat qanday? Fikringizni yozing
15. Farzandingiz biron ayb ish qilib qo'ysa buni o'zingizni xatongiz deb bilasizmi?
16. Siz ota-onalik burchlarini yetarli darajada bajarayapman deb o'ylaysizmi?
17. Farzandingiz o'rtoqlari davrasida axloqsizlikka yol qo'ysa qanday yo'l tutgan bo'lardingiz? Fikringizni yozing.

UMUMIY XULOSALAR

O'zbekiston Respublikasining kelajakda buyuk davlat bo'lishi va uni ta'minlash yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalash ishi birinchi novbatda oilada boshlanadi.

Ota-ona farzandlariga go'zal xomiy va nasihatgo'y bo'lishlari lozim. Bunday go'zal momila farzand bilan ota-ona orasidagi mehr muhabbatni yanada kuchaytiradi.

Farzandlarning go'zla odobli-ahloqli, tarbiyali bo'lishlari uchun, avvalo, ota-onalarning o'zlari g'o'zal hislatga ega, o'rnak bo'lishlari shart. Bu uy ahli ya'ni ota-ona, o'g'il va qizlarning birgalikdagi totuvlik bilan yashashlarida muhim omildir.

Sharq mutaffakkirlari inson, uning shaxsi va ta'lim-tarbiyasini tashkil etish, shuningdek, unda mehnatsevarlik, bilim olishga intilish, aqliy jihatdan kamolotga ytishini ta'minlash, unda nutq madaniyati, so'z sana'ti shakllantirishi, yuksak ma'naviy-ahloqiy sifatlarni tarbiyalash ma'salalarini o'rganishga katta ahamiyat berganlar. Ular insonni har tomonlama barkamol, b ilimli bo'lishini istaganlar. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari metodologik xususiyatga ega bo'lib, nafaqat ular yashagan davrda, balki bugungi kunda ham ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Hozirgi davrning salmoqli ta'siri natijasida oilalarning ijtimoiy tarkibi ham o'zgarmoqda, bu esa o'z navbatida oila tarkibida, turmush va uning qiyofasida jiddiy o'zgarishlarni vujudga keltirimoqda.

Bu esa o'z navbatida, o'zbek oilalarida bunday tarkibiy o'zgarish, yangidan munosabatlar tarixiy tarkib topgan milliy o'ziga xoslikni yo'qotishgini emas, balki oilalardagi munosabatlarning har tomonlama rivojlanishiga, ko'p millatli respublikamiz aholisi urf-odatlarini an'analarning uyg'unlashuviga, mazmunan boyishiga sabab bo'lmoqda. Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalash, ota-onalarning va katta yoshdagi barcha kishilarning namunada bola shaxsini shakllantirish, uning dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, jamoa o'zini tuta bilishiga tayyorlovchi

omildir. Yosh avlodning qiziqish va tirishqoqligi, mehnatsevarligi birinchi novbatda oila va undagi tarbiyaviy holatlarga bog'liqdir.

O'zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni, tarbiyaning kundalik va istiqbol rejasi, bolalarga ta'sir o'tkazish vositasini tanlash va undagi unumli foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega: chunki uning asosida xalq an'analari yotadi.

O'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlaridan foydalanishi har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muhim ro'l o'ynaydi.

Ahloqiy tarbiya uchun muhim ahamiyatga molik bo'lgan shartlardan biri o'g'il-qizlarning o'z ota-onalari mehnat faoliyati haqidagi tushunchalardir. Farzandlar o'z ota-onalarining qayerda, kim bo'lib ishlayotganliklaridan tashqari qanday ishlayotgani, o'z mehnat jamoalaridagi mavqei, mehnat do'stlari, mehnat faoliyatiga doir an'analardir, yutuqlari, rag'batlantirilishi kabilarni yaxshi bilsalar, ularga nisbatan taqlidchanlik xissi o'sadi va bu hol o'quvchining o'qish mehnati va faolligiga katta ta'sir etadi, uning sinf jamoasidagi mavqeini oshiradi. Muhim pedagogik jihati shundaki bu tushuncha o'quvchini intizomli bo'lishiga yaxshi o'qishiga ilhomlantiradi.

Modomiki jamiyatimizning ertangi me'morlari bo'lgan bugungi yosh avlodlarni tarbiyalashda zarur bo'lgan mehnat tarbiyasini qo'shib olib borish, bugun siz-u, bizga yuklangan ekan, demak uning boshqa turli usullarini qidirib topish ham bizning zimmamizda. O'zlarida mehnat tarbiyasini yaxshi o'zlashtirgan kishilargina yosh avlodni mehnat tarbiyasi bilan bog'lab tarbiyalashdek ulkan vazifani bajarishlari oson kechishi mumkin.

USLUBIY TAVSIYALARI

1. Maktab o'quvchilarida milliy xusuiyatlarimizni shakllantirimiz uchun urf odat, an'analarimizdan muntazam ravishda foydalanishi tavsiya etamiz.

2. O'zbek oilalarida yigit-qizlarga ahloqiy tarbiya berish uchun, samimiy suhbat, namuna, ahloqsiz harakat uchun rag'batdan qoldirish, ta'qiqlash bola harakatini doimo nazorat qilish va ishontirish usullaridan foydalanishi tavsiya etamiz.

3. Tarbiya jarayonida bolalarni yosh va shaxsiy xususiyatini hisobga olishi oiladagi ruhiy iqlim, totuvlik hamisha barqaror bo'lishga olib keladi.

4. Oilada bolalarni mehnat faoliyatiga jalb qilish va mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lishiga o'rgatilsa bolalarning ahloqiy hislatlarini shakllantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. I.A.Karimov. “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahlil, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. T., “O'zbekiston”, 1997 y, 137-b.
3. I.A.Karimov. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”. T., “Sharq”, 1998 y, 32-b.
4. I.A.Karimov. “O'zbekiston XXI asrga intilmoqda”. T., “O'zbekiston”, 1989 y, 50-b.
5. T.A.Karimov. “Milliy istiqlol mafkurasi – xalq ye'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir”. Toshkent, “O'zbekiston”, 2000 y, 30-b.
6. I.A.Karimov. “Buyuk kelajak sari”. Toshkent., “O'zbekiston”, 1992 y, 41-b.
7. “Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T., “Sharq”, 1997 y, 65-b.
8. “Milliy ishtiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar”. –Toshkent, “O'zbekiston” nashriyoti, 2001 y, 80-b.
9. Uchinchi mingyillikning bolasi (tayanch-dastur). Toshkent, 2001.
10. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –toshkent, “O'qituvchi” nashriyoti, 1992 y, 160-b.
11. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. –Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993 y, 149-192 betgacha.
12. Abu ali ibn Sino. “Abu Rayhon Beruniy”, A.Qayumov, Toshkent., “Yosh gvardiya”, 1987 y.
13. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri”. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993 y, 22-b.
14. Alisher Navoiy. “Mahbubul-qulub”. Toshkent, “G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at” nashriyoti, 1983 y, 22-bet.
15. Alisher Navoiy. “Hayratul abror”, “G'.G'ulom nomidagi xalq merosi” nashriyoti, Toshkent, 1989 y, 352-bet.
16. Abu Rayhon Beruniy. “Mineralogiya”. M., 1963 y, 212-bet.

17. Alouddin Mansur. “Qur’oni Karim”. O’zbekcha izohli tarjima. Toshkent, “Cho’lpon”, 1992 y, 544-bet.
18. Abu Rayhon Beruniy. “Feruza” (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi.
19. “Axloq-odobga oid hadis namunalari”. T., “Fan”, 1999 y, 168-bet.
20. Ahmedov B., Aminov A. “Amir Temur o’g’itlari”. –Toshkent., “navro’z” nashriyoti, 1992 y, 64-bet.
21. Asqarali Sharopov. “Sharq tafakkuri xazinasidan”. “G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”, 1986 y, 128-b.
22. Asqar Munavvarov. “Oila pedagogikasi”, Toshkent, “O’zbekiston”, 1994 y, 112-bet.
23. Inomova M. “Farzand – nihol, ota-ona - bog’bon”. Toshkent, “O’qituvchi”, 1983 y, 56-b.
24. Mardonova G. “Nur to’ladi”, T., “Mehnat”, 1992 y, 86-bet.
25. Mahkamov S. “Islom dini va oila tarbiyasi”. Toshkent., “G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at” nashriyoti, 2000 y, 10-25 betlar.
26. Musurmonova O. “O’quvchilarni ma’naviy madaniyatini shakllantirish”. – T., “Fan”, 1993 y, 112-bet.
27. Musurmonova O. “Oila ma’naviyati – milliy g’urur”. –Toshkent, “O’zbekiston”, 1999 y, 200-bet.
28. Inomova M. “Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyasi”. Toshkent, 1999 y, 152-bet.
29. Inoyatov M. “Oila, ijod, tarbiya va ma’naviyat”. Toshkent, “sharq”, 2000 y, 110-bet.
30. Matlabbek Ulug’bek qizi. “hikmatlar guldastasi”. _toshkent, “O’qituvchi”, 1994 y.
31. Safo Ochil. “Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari”. –Toshkent., “O’zbekiston”, 1998 y.
32. I.Sh.Alqarov, R.Mamatqulova, H.D.Norqulov “Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi” T; “Fan va texnologiya nashriyoti”, 2009 yil

32. Sobolev YA.A. “Ota-onalarga pedagogik bilim berish”. –Toshkent, 1977.
33. Inomova M. “Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash”. –Toshkent, 1999.
33. Usanov A. “Oilaviy an’analar – axloqiy va mehnat tarbiyasi vositasi”. – Samarqand, 1990.

**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Pedagogika
fakulteti «Pedagogika-psixologiya» yo'nalishi kunduzgi bo'lim 401-guruh
talabasi Raimova Dilnozaning «Oilada axloqiy munosabatlarni
shakllantirish» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga**

T A Q R I Z

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunlarda belgilangan vazifalarni yechishga qaratilgan bo'lib mustaqillik sharoitida yosh avlodni har tamonlama barkamol qilib tarbiyalash, yetuk va malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan bo'lib, ilmiy pedagogik ahamiyatga egadir.

Mazkur bitiruv ishi kirish, 2 bob, 5 band, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, predmeti, maqsad, vazifalari, ilmiy farazi, amaliy ahamiyati, metodologik asosi, tadqiqot metodlari bayon etilgan.

Birinchi bobi nazariy qismdan iborat bo'lib, oilada axloqiy munosabatlarni shakllantirishning ilmiy–nazariy asoslari o'z ifodasini topgan, tadqiqotchi oilalarda axloqiy munosabatlarni yo'lga qo'yilishi, farzand tarbiyasining asosiy mazmuni, tarkibi va umumiy xususiyatlari, allomalarimning farzand tarbiyasi va oilalarda axloqiy munosabatlarning yo'lga qo'yilishi borasidagi qarashlari va olimlarning tadqiqotlarini o'rganib chiqib, o'z fikrini bayon etgan.

Malakaviy bitiruv ishining ikkinchi bobida oilada axloqiy munosabatlarni yo'lga qo'yish va unda oilaviy an'analarning amaliy ahamiyati va ularning amaliy shakl, metodlari, vositalari va ularni imkoniyatlari o'z ifodasini topgan. Turli vosita va amaliy yo'llari, oilalar bilan olib borilgan tadqiqotlar, testlar va ularning natijalari ko'rsatib bergan. Talaba ayrim orfografik xatolarga ahamiyat berganida yaxshiroq bo'lar edi.

Shunga qaramay ish adabiy tilga barcha ota-onalarga, pedagoglarga va bo'lajak ota-onalarga bevosita yordam berishi mumkin.

Malakaviy bitiruv ishi barcha talablarga javob beradi YaDAK himoyasida ijobiy

() baholashga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

**SamDQI dotsenti
Dots.O.Suyunov**

**A.Navoiy nomidagi SamDU Pedagogika fakulteti Pedagogika kafedrasining
navbatdagi 10-maydagi 10-sonli yig'ilish bayonnomasidan
KO'ChIRMA**

2015-yil 10-may

Qatnashdilar: Kafedra a'zolarining 19 nafari.

Majlis raisi: dots. A.Abdumannotov

Kotib: o'q. H.Qoraboyev

KUN TARTIBI:

Pedagogika kafedrasida 2014-2015 o'quv yilida bajarilgan malakaviy bitiruv ishlarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida.

EShITILDI: Ushbu masala yuzasidan kafedra mudiri, dots. A.Abdumannotov so'zga chiqib, kafedrada 2014-2015 o'quv yilida bajarilgan malakaviy bitiruv ishlari bilan tanishtirdi va quyidagilarni bayon qildi:

Mazkur o'quv yilida Pedagogika – psixologiya yo'nalishining bitiruvchi kurs talabasi Raimova Dilnozaning «Oilada axloqiy munosabatlarni shakllantirish» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishini yozdi. Ilmiy rahbari G.Eshnazarova. Talaba ushbu mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazalari ham bor. Shuning uchun so'zni Raimova Dilnozaga bersak, u malakaviy bitiruv ishining mazmuni bilan tanishtirsa.

Raimova Dilnoza malakaviy bitiruv ishining mazmun-mohiyati to'g'risida gapirib, mavzuning dolzarbligi, o'rganilish darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amalga oshirilgan ishlar haqida gapirildi.

Shundan so'ng talabaga dots. N.Qiyomov, dots. Y.Axrorovlar savollar berishdi. Savollarga Raimova Dilnoza o'rinli javob berdi.

Raimova Dilnozaning chiqishi, savol-javoblardan so'ng mazkur malakaviy bitiruv ishini YaDAKga himoyaga tavsiya etish haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Q A R O R Q I L I N D I :

1. Pedagogika fakulteti Pedagogika-psixologiya yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi Raimova D ning «Oilada axloqiy munosabatlarni shakllantirish» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi talabga javob beradi deb hisoblansin va u YaDAKga himoyaga tavsiya etilsin.

2.Raimova Dilnozaning ushbu malakaviy bitiruv ishiga Sam.DIQ dotsenti O.Suyunov taqrizchi etib belgilansin.

3.Pedagogika kafedrasining ushbu qarorini tasdiqlash fakultet dekanatidan so'ralsin.

Yig'ilish raisi:

dots. A.Abdumannotov

Yig'ilish kotibi:

o'q. H.Qoraboyev

Pedagogika fakulteti
«Pedagogika-psixologiya» yo'nalishi
Pedagogika kafedrası

« Oilada axloqiy munosabatlarni shakllantirsh »

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Raimova Dilnoza

Ilmiy rahbar: G.Eshnazarova

Samarqand – 2015

**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Pedagogika
fakulteti «Pedagogika-psixologiya» yo'nalishi kunduzgi bo'lim 401-guruh
talabasi Raimova Dilnozaning «Oilada axloqiy munosabatlarni
shakllantirish» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga**

MULOHAZA

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyingi 24 yil davomida huquqiy, demokratik jamiyat qurish yo'lidan bormoqda. Bu jamiyatni qurish avvalambor yoshlarni har tamonlama barkamol bo'lishlarini talab etadi. Jamiyat a'zolari qanchalik ma'naviy boy, aqliy, jismonan sog'lom shakllangan bo'lsa, ijtimoiy muhitimiz shunchalik taraqqiy etib, insoniyatning ma'naviy ehtiyojlarini qondirib boradi. Bunday ijtimoiy buyurtma esa avvalambor oilaga, ota-onaga yuklatiladi. Shu jihatdan Raimova Dilnozaning «Oilada axloqiy munosabatlarni shakllantirish» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi ushbu masalani yechishda ijtimoiy pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, predmeti, maqsadi, vazifalari, ilmiy farazi, amaliy ahamiyati, tadqiqot metodlari, sinov-tajriba maydoni, ishning qisqa tavsifi ochib berilgan. Olingan natijalar tahlil etilgan.

Olib borilgan ishlar mazmunidan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, malakaviy bitiruv ishi talablariga to'la javob beradi. Ish mazmunidan yosh ota-onalar, talabalar, maktab o'qituvchilari hamda tarbiyachilar foydalanishlari mumkin va malakaviy bitiruv ishini himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar

G.Eshnazarova